

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O`ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

“Himoyaga ruxsat etildi”

Filologiya fakulteti dekani:

_____ p.f.n. K.Abdullayev

«__» _____ 2018

5120100 – Filologiya va tillarni o`qitish
(o`zbek tili) ta`lim yo`nalishi bitiruvchisi
Sodaliyeva Sayyora Oqiljon qizining
“HOFIZ XORAZMIY LIRIKASIDA QOFIYA VA RADIF SIFATIDA
QO`LLANGAN SO`ZLAR TALQINI”

mavzusidagi

BITIRUV-MALAKAVIY ISHI

“Himoyaga tavsiya etildi”

O`zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri:

_____ f.f.n. Sh. Abdurahmonov
«__» _____ 2018

BMI rahbari: filologiya fanlari

nomzodi, dotsent Mo`minjon

Sulaymonov

Namangan – 2018

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. HOFIZ XORAZMIY LIRIKASIDA QOFIYA SIFATIDA QO`LLANGAN SO`ZLAR TADQIQI.....	6
I.1. Umumturkiy so`zlar.....	6
I.2. Arabcha so`zlar.....	10
I.3. Forscha-tojikcha so`zlar.....	18
I.4. Arxaik va shevaga xos so`zlar.....	21
II BOB. HOFIZ XORAZMIY LIRIKASIDA QO`LLANGAN RADIFLAR.....	24
II.1. Umumturkiy so`zlar.....	24
II.2. Arabcha so`zlar.....	37
II.3. Forscha so`zlar.....	40
II.4. Arxaik va shevaga xos so`zlar.....	42
III BOB. HOFIZ XORAZMIY LIRIKASIDA QO`LLANGAN QOFIYA VA RADIFLARNING BADIY XUSUSIYATLARI.....	46
III.1. Tajnis san`ati.....	54
III.2. Sinonim va antonimlar.....	61
III.3. Takrorlar.....	64
UMUMIY XULOSA.....	67
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	69

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi va ahamiyati. Respublikamizda bugungi kunda xalqimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining hamma jabhalaridagi yutuqlar, jahonning eng rivojlangan davlatlari bilan siyosiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-texnik sohalardagi aloqalarda erishilayotgan muvaffaqiyatlar bevosita yurtimizning o'z mustaqilligini qo'lga kiritganligi bilan bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov xalqimizning asrlar davomida ardoqlab kelingan buyuk boyligi hisoblangan ma'naviyatning asl mohiyati va uning ijtimoiy-siyosiy hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini yoritib berishga bag'ishlangan «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida ona tilimizning mamlakatimiz ichki va tashqi hayotidagi o'rni va rivojlanishiga, uning vazifaviy-uslubiy imkoniyatlarini yanada kengaytirish lozimligiga alohida e'tibor qaratgan. Haqiqatdan ham, yurtboshimiz ta'kidlaganidek, «biz ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur»¹.

Darhaqiqat, millatimizning ruhi bo'lgan ona tilimizni, xalqimizning azaliy qadriyatlarini kelgusi avlodlarga yetkazishda adabiyotning o'rni va ahamiyati beqiyos ekaniga jiddiy urg'u berilmoqda. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor ekani, binobarin, adabiyotimiz rivoji uchun nafaqat yozuvchi va shoirlar, balki butun jamiyat mas'ul ekani alohida ta'kidlanmoqda².

Shu nuqtayi nazardan shoir Hofiz Xorazmiyning lirik xazinasini bo'lgan “Devon”ining lingvistik va badiiy tahliliga doir mazkur bitiruv-malakaviy ishimiz dolzarblikka ega.

Shoir lirikasini o'rganish katta ahamiyatga ham ega bo'lib, bu she'riyatsiz o'sha davr adabiyotini to'la va yaxlit tasavvur qilish mumkin emas, shuningdek, ijodkor devonidagi lirik janrlarni va ularni tashkil etgan so'zlarni badiiy jihatdan

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent. Ma'naviyat, 2008. 87-bet.

² Karimov.I. A. Adabiyotga e'tibor - ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – Toshkent. “O'zbekiston”, 2009, 4-bet.

o'rganish adabiyotshunoslik uchun muhim manbaga aylanib qoldi. Tadqiqot natijalaridan "O'zbek adabiyoti tarixi" fani ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlarini o'tkazishda foydalanish mumkin.

BMIning maqsadi va vazifalari. Biz ushbu tadqiqotimizda Hofiz Xorazmiy she'riyatida qofiya va radif sifatida qo'llangan so'zlarning badiiy xususiyatlarini tahlil etib, o'ziga xoslik va o'xshash tomonlarini ochib berishga intildik, shuningdek, shoir ijodida lirik janrlarning adabiyotshunoslik uchun muhim tomonlarini qisman bo'lsa-da, tadqiq etishni lozim topdik. Bunda asosiy e'tiborni quyidagi masalalarga qaratiladi:

– Hofiz Xorazmiy devonidagi qofiyalarning xususiyatlarini tilshunoslik asosida tahlil etish;

– Devondagi radif sifatida qo'llangan so'zlarning badiiy xususiyatlarni o'rganish;

– Devonda qofiya va radif asosiga qurilgan badiiy san'atlarni tadqiq etish.

– Hofiz Xorazmiy she'rlarini o'zbek mumtoz she'riyatida tutgan o'rini o'rganish.

Tadqiqotning obyekti. Hofiz Xorazmiyning 1981-yil nashr etilgan II jildlik devoni, 1980-yilda o'zbek va rus tillarida chop etilgan to'plamlari, 1988-yil "O'zbek adabiyoti bo'stoni" to'plamida chop etilgan "Hayot vasfi" to'plami hamda 1998-yilda Turkiyaning Anqara shahrida Rejep Toparli tomonidan Hofiz Xorazmiy devonining to'liq nashri amalga oshirilgan.

Hofiz Xorazmiy g'azal janrida barakali ijod qilib, XIV asr oxiri va XV asr boshlaridagi o'zbek g'azaliyotining ham g'oyaviy, ham shakliy takomiliga bebaho hissa qo'shgan ijodkordir. U o'zbek g'azali mavzusini fors-tojik she'riyati an'analari asosida boyitdi, rivojlantirdi.

Ijodkor devonlariniga kiritilgan g'azallarning qofiya va radiflarini tahlil qilish davomida qofiya hamda radif sifatida qo'llangan so'zlarning o'z yoki o'zlashgan qatlamga oidligi, dialektal va arxaik birliklardan foydalanganligini

aniqlash, qofiya va radiflar tasviriy ifodaning bir uzvi ekanligi adabiyotshunoslikka oid manbalar asosida o'rganildi.

BMI tuzilishi. Mazkur bitiruv malakaviy ish «Kirish», uchta asosiy bob hamda «Xulosa»dan iborat. Ishning so'ngida «Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati» ilova qilingan.

I BOB. HOFIZ XORAZMIY LIRIKASIDA QOFIYA SIFATIDA QO`LLANGAN SO'ZLAR TADQIQI

I.1. Umumturkiy so'zlar

Mumtoz she'riyatimizda qofiya she'riy asarlarda badiiyatning asosiy qirralaridan biri hisoblanib kelgan. Zero, she'riy asarlarning salohiyati ularda qo'llangan g'oyalar mazmun-mohiyati, timsollar qiyofasini ochishdagi ahamiyati, qofiyalarning ma'naviy teranligi, ohangdorligi va jozibadorligi bilan belgilangan. Qofiyaning xilma-xil turlari va san'atlaridan, vazn va qofiya munosabatlaridan o'rinli foydalanish shoir mahoratining muhim jihatlaridan biri hisoblangan. Shuning uchun ham har qaysi ijodkor qofiya ilmini diqqat-e'tibor bilan o'rgangan, yetuk shoirlarning bu sohadagi san'atkorliklaridan ta'lim olib kamol topgan.

Ma'lumki, til lug'at tarkibini tarixiy-etimologik nuqtayi nazardan tekshirganda, avvalo, o'zbek tilining genetik jihatdan o'ziniki bo'lgan so'zlari belgilab olinadi. Bunday so'zlar o'zbek tilida qadimdan mavjud bo'lgan turkiy til so'zlaridir. Umumturkiy so'zlar o'zbek tili leksikasining asosiy negizini tashkil etuvchi qadimiy qatlamdir.

O'zbek tilining tarixiy taraqqiyoti o'zbek xalqi tarixi bilan uzviy bog'liqdir. O'zbek xalqi, ma'lumki, eng qadimgi turkiy urug' va qabilalardan o'sib chiqqan, demak, uning tili ham shu urug' va qabilalar tili negizida rivoj topgan. Markaziy Osiyodagi turli tarixiy va ijtimoiy siyosiy jarayonlar, xususan, arablar, mo'g'ullar va ruslar istilosi, qardosh qozoq, qirg'iz, turkman, tojik xalqlari bilan qo'shniçilik munosabatlari ham o'zbek tili taraqqiyotiga jiddiy ta'sir o'tkazgan, bunda, ayniqsa, turkiy-arab, o'zbek-arab, o'zbek-tojik, o'zbek-qozoq, o'zbek-qirg'iz va o'zbek-turkman bilingvizmi omillarining roli katta bo'lgan. Ana shu tarixiy jarayonlar nuqtayi nazaridan qaralganda, hozirgi o'zbek tilining lug'at boyligida ikkita yirik qatlam – o'z va o'zlashgan qatlamlar borligi ma'lum bo'ladi.

O'zbek tili leksikasi tarkibida **umumturkiy so'zlar** turkiy xalqlar uchun umumiy bo'lgan so'zlar sanaladi. Umumturkiy so'zlar badiiy asarning imkoniyatlarini yoxud lirik qahramonning xarakterini keng yoritib berishda muhim

badiiy vosita sanaladi.

Hofiz Xorazmiy har bir soʻzni poetik timsol darajasiga koʻtara oldi. Uning sheʼriyati, xususan, “Devon”dagi sheʼriy matnlarda istifoda etilgan umumturkiy soʻzlar, bir tomondan, umumbashariy qatlamga daxldor lugʻaviy birliklar sifatida koʻzga tashlansa, boshqa tomondan, poetik timsol sifatidagi mavqeyi bilan eʼtiborni tortadi va badiiy soʻz tarzida ajralib turadi.

Hofiz Xorazmiy ijodida qofiyaga olingan soʻzlarni umumturkiy qatlamga mansublik darajasini quyidagi tasniflar asosida talqin qildik:

Tovush tuzilishi jihatidan oʻz qatlamga xos soʻzlarning asosiy belgilari deb quyidagilarni koʻrsatish mumkin:

1. Hofiz Xorazmiy sheʼriyatida oʻzbekcha tub soʻzlar asosan bir boʻgʻinli, qisman ikki boʻgʻinli boʻladi (uch boʻgʻinli, hatto ikki boʻgʻinli leksemalar tarixan hosila leksema boʻlib chiqadi);

Xati xushboʻy erur mushki Chindin,

Xato ermas savarman ani **chindin**.

Shoir birinchi misradagi forscha “Chin” (Xitoy soʻzining qadimiy shakli)soʻziga hamohang umumturkiycha rost, haq maʼnosidagi “**chin**” soʻzidan foydalangan(mumtoz sheʼriyatda tajnis sanʼatiga misol boʻla oladi).

Agar oʻq tegmasun jongʻa tesangiz,

Yiroq yurung oʻshul yotak **qoshindin**. (“Devon” 1, 279)

Ikkinchi misrada chin soʻziga uygʻun “**qosh**” (inson tana aʼzosi) soʻzi ohangdoshlikni kuchaytirgan.

Gʻamzang tilayu boʻldi koʻngul mubtaloyi hajr,

Chop oni tez qilich bila, koʻp tutma **qin** aro.

Sheʼrdagi qofiyadosh soʻz vazifasidagi “**qin**” soʻzi turkiy xalqlarda ishlatiladigan pichoq, qilich kabi qurollar solib qoʻyiladigan gʻilof³ maʼnosida qoʻllangan.

Koʻrmadi hech zot saningtak oriy vujud,

Boʻlgʻali nafxi ruhi ravon movu **tin** aro. (“Devon” 1, 14)

³ Oʻzbek tili izohli lugʻati. 5-jild. “Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. 2006, 296-bet

Keyingi baytdagi umumturkiy “**tin**” (nafas olmoq, tin olmoq) soʻzi qin soʻzi bilan birga ohangdoshlikni taʼminlash maqsadida qoʻllangan.

1. Shoir ijodida bir boʻgʻinlilardan “undosh-unli-undosh” tipi asosiy oʻrinni egallaydi:

Oshiq koʻzida ishq oʻtidin **yosh** karakdur,
Mehr oʻti ham ul yosh bila **bosh** karakdur.
Ey xalqi jahon, siz tilangiz, ne kerak ersa
Kim, bori manga ul qaro koʻz, **qosh** karakdur. (“Devon” 1, 152)

Ul parikim, yuzida gulzori husn-u bogʻ bor,
Domi zulfindin bu jon shahbozi uchun **togʻ** bor. (“Devon” 1, 285)

Oʻladurman tedimsa, aytur doʻst:

Santak oʻlganga munda ne **son** bor?(“Devon” 1, 398)

2. Shoir gʻazallarida umumturkiy soʻzlar *r*, *l*, *v*, *h* tovushlari bilan boshlanmaydi;

Niholi sarvi qaddingtak ravon boʻstonda jon koʻrmas,
Sani yaxshi koʻrar jonning koʻzi hargiz **yomon** koʻrmas.(“Devon” 1, 468)

Jahon mutiʼ boʻlur erdi koru borimgʻa,
Manga eshikda agar boʻlsa erdi **bor**, ey doʻst. (“Devon” 1, 468)

3. Qofiyaga olingan soʻzlarda *j* sirgʻaluvchi tovushi, *h* boʻgʻiz tovushi (ayrim undov va tasvir birliklaridan tashqari) qatnashmaydi;

Turfa ermas boʻyungda ul qaro soch,
Toʻlgʻanur tolgʻa ham **yilon**, ey doʻst. (“Devon” 1, 92)

Tirikliqdin toʻyubmankim, qoʻlim etishmadi hargiz,
Biror shaftolu olmagʻa, taqi olma **saqoqinggʻa**.

Ogʻzin gʻuncha yangligʻ ochib ul jon soʻzlagan aro
Shakar tahsin qila turgʻay, tili boʻlsa, **tudoqinggʻa**. (“Devon” 1, 48)

4. Soʻz boshlanishida, koʻpincha oxirida ham ikki va undan ortiq konsonant qatorasiga kelmaydi (*ost-, ust-, old-, ort-* kabi bir necha leksema bundan mustasno);

Hamisha yastanibman ostonin,

Guhar tekkay teyu ul **ostindin**. (“Devon” 2, 279)

5. “Devon”dagi umuturkiy soʻzlarda urgʻu asosan soʻzning oxirgi boʻgʻinida boʻladi.

Agar Hasson-u Salmon turki ayta tirilur boʻlsa,

Maoriz boʻlgʻay erdim ul zamon Hasson-u Salmongʻa.

Bu dam turkida Xoqoniyman-u, maddoh ul shohga,

Kim oning qullari taʻna qilur yuz turli **xoqongʻa**. (“Devon” 28)

Semantik belgilari:

Shoir ijodida uchraydigan umumturkiy soʻzlarning askariyati koʻp maʼnolidir:

Marhami vaslingni yoqgʻil sinayi majruhgʻa,

Doyimo hijroning oʻti birla oni **yoqmagʻil**. (“Devon” 2)

Baytda yondirmoq, oʻt, alanga hosil qilmoq **yoqmoq**⁴ soʻzining koʻchma maʼnodagi **“hijron oʻtida jonini yoqmoq”** maʼnosidagi mumtoz poetik varianti qoʻllangan.

Boʻstondur yor eshigi oshiqi ovoragʻa,

Bor agar topsang sabo ul boʻstondin kechmagil.

Qildi ersa koʻzlarim jonon yoʻlinda qon ravon,

Hofiz aytadur oʻshul jonongʻa: «**qondin** kechmagil». (“Devon” 2)

“Qon” organizmning yurak va qon tomirlaridan borayotgan yopiq sistema ichida toʻxtovsiz harakatlanib turuvchi suyuq toʻqimasi (aʻzo va hujayralarni oziqalantiradigan, moddalar almashanishini taʼminlaydigan qizil suyuqlik)⁵. Misrada qon soʻzining **“bir qoshiq qonidan kechmoq”** (*yoki oʻtmoq*), gunohini kechirib, oʻlimdan qoldirmoq, avf etmoq maʼnolarini ifodalangan.

Morfologik belgilari:

⁴ Oʻzbek tili izohli lugʻati. 2-jild. “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashiryoti. 2006, 56-bet

⁵ Oʻzbek tili izohli lugʻati. 5-jild. “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashiryoti. 2006, 528-bet

a) “Devon”da umumturkiy qatlamga oid barcha soʻz turkumlari mavjud.

Koʻzlarimning yoʻlidin oqsa qora qon, ne ajab,

Chun jigar porasidur dam-badam oqgʻan **qaro** qon (“Devon” 2)

Qadandi siynayi oshiqgʻa andogʻ oʻqi paykoni

Kim, ul paykonni chaksalar chiqar shaksiz ravon joni.

Tomar koʻz koʻra koʻzindin yuziga dam-badam ol qon,

Chun oning soʻzi ishqindin tomarda qaynadi **qoni**. (“Devon” 2)

b) sheʼrlarida turlangan va tuslangan umumturkiy soʻzlar oʻrin olgan;

Aytgʻan ora saning jononing erurman teyu,

Koʻzung uchi birla nogoh oʻzgaga koʻz **qaqmagʻil**.

Ishqning sirrini pinhon ayladim man xalq aro,

Gʻamzayi gʻammoz birla nogohon san **chaqmagʻil**. (“Devon” 2, 559)

c) qofiyalarda oʻz qatlam soʻzlar tabiatga muvofiq old qoʻshimchalar qoʻllanmaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, shoir ijodidagi gʻazallardagi qofiyaga olingan soʻzlarda oʻz qatlamga oid soʻzlar umumturkiy soʻzlar ham mazmuniy, ham shakliy oʻziga xosliklari bilan salmoqli oʻrin egallaydi.

I.2. Arabcha soʻzlar

Maʼlumki, arab tilidan soʻzlarning oʻzlashtirilishi VIII asrdan boshlanib, IX-X asrlarda ancha faollashgan. Arab tilidan soʻz oʻzlashtirilishiga olib kelgan omillar ichida quyidagilar muhim rol oʻynagan:

a) arablar istilosi;

b) islom dinining keng tarqalishi;

v) arab yozuvining qoʻllana boshlanganligi;

g) madrasalarda arab tilining oʻqitilishi;

d) turkiy-arab ikki tilliligining (bilingvizmning) tarkib topganligi;

e) olim-u fuzalolarning arab tilida ijod qilganligi bilan xarakterlanadi.

Hofiz Xorazmiy ijodini kuzatar ekanmiz, uning nafaqat, oʻz qatlam, balki

o‘zlashgan qatlam, asosan arabcha, fors-tojikcha so‘zlardan mahorat bilan foydalanganining guvohi bo‘lamiz. Shu bois, biz bu bobda arab tilidan o‘zlashgan so‘zlarni shoir qofiyalarda qay tarzda qo‘llay olganini quyidagi guruhlar asosida o‘rgandik:

Shoir Hofiz Xorazmiy ijodida uchraydigan qofiyadosh so‘zlardagi ilm-fanga oid so‘zlar: *tarjimon, notiq, bayon, rivoyat, hikoyat, qonun, sharh va b.*

Nekim aytsa, jon xat-u xolindin aytadur,
Chun yo‘qdur andin o‘zga hadis-u **rivoyati**.
Tilsiz bo‘lub hikoyat ishqini so‘zlagil,
Chun etmas bu til anga loyiq **hikoyate**. (“Devon” 2, 227)

Hofiz etmas bayoni ishq, vale
O‘z-o‘zini qilur **bayon** ishqing. (“Devon” 1, 279)

Man kechdim o‘z-o‘zumdim, san aytg‘il bu so‘zni
Mandin chu yaxshi kelmas **sharhu olam**.
Kim bilgay erdi olam nedur teyu bu damda,
Gar bo‘lmasang orada san **tarjimoni** olam. (“Devon” 2, 33)

San tabibimsanu o‘zgaga qilursan darmon,
Javr bobinda yamon mundog‘ **qonun** qilma. (“Devon” 1, 18)

Zarroti jahon oning so‘ziga erur mashg‘ul,
Ham o‘lugu ham tiri, ham somitu ham **notiq**. (“Devon” 1, 18)

“Devon”dagi qofiyalarda adabiyot va san‘at tushunchalariga oid so‘zlarning qo‘llanishi:

a) adabiyotga oid: *g‘azal, g‘azalxon, hikoyat, rivoyat, shoir, she‘r, devon, ifrot;*

G‘azalki Hofiz o‘shul xat-u la‘lidin aytur,
Siyohi ichra chu obi hayot erur **g‘azali**. (“Devon” 2, 261)

Sulaymoni zamon sansan, nazar qilsang bu Hofizgʻa,
Pariylarni musaxxar qilgʻay erdi xatti **devonim**. (“Devon” 2, 51)

Eykim, boʻyunggʻa rost kelibdur **shiori** sheʻr
Sandin ziyoda boʻldi base koru bori sheʻr. (“Devon” 1, 112)

Boʻlimgʻaymu manga ul holki Hofiz yangligʻ,
Boʻlsaman mast eshiginda **gʻazalxon** paydo. (“Devon” 1, 14)

Saning husnu jamoling mushafindin
Erur Yusuf soʻzi bir necha oyat.
Visoling boʻlmasa man qulgʻa roʻziy,
Xayoling birla bori bor **hikoyat**. (“Devon” 1, 49)

Taajjub etma agar noladin boʻlubman nol
Firoq oʻtinda koʻzumdin borur **ifrot**, ey doʻst. (“Devon” 1, 43)

b) sanʻatga oid: *ud, soz, chang, ohang, ushshoq, Hijoz(kuy nomi), rasm...*

Changin changinga olgʻanda qilib **ud ila soz**,
Pardani rost qil, ey mutribi **ushshoqnavoz**.
Gar Sifohonda navo topmasang, ey yori buzrug,
Qilgʻasan azmi Iroq aylab **ohangi Hijoz**. (“Devon” 1, 233)

Ne ajab boʻlgʻay sanga jonimni isor aylasam,
Chun gadodin shohi olamgʻa boʻlur **rasmi balak**. (“Devon” 1,280)

“Devon”dagi qofiya olingan kitob bilan bogʻliq soʻzlar: *tahrir, bob, tarjima, varaq, muallif, muarrix, risola, sahifa, tabaqa, xattot va b.*

Sirri zamiri lavhi yuzindadur oshkor,
Kim chakti surxiy birla koʻzum yuzda **bobni**. (“Devon” 2,186)

Chakar yuzumning uza surxiy birla ko‘zum bob,
Bu bobdin manga yuz **fathi bob** ko‘runadur. (“Devon” 1, 89)

Xush hol erurki jonda base ramz bor ekan,
Maydin ko‘runsa tilning uchinda **kalolate**.
Ma‘budg‘a sujud qilib shukr qilg‘amiz,
Nogoh etishsa piri mug‘ondin **risolate**. (“Devon” 2, 224)

Rumuzi ishq chu bexatu bekitob erur,
Bu so‘zni bilgali xatu **kitobni** tilaman. (“Devon” 2, 103)

Qilsa dildor bu miskin tarafig‘a nazare,
Topg‘an erdim bu jahon sirridin ul dam **xabare**.
Be nishon bo‘lmay o‘shandin chu topulmadi nishon,
Asare qolmasa topg‘ayman o‘shandin **asare**. (“Devon” 2, 229)

Shoir ijodida qofiyadosh so‘zlardagi vaqt tushunchasi bilan bog‘liq so‘zlar:
fursat, vaqt, zamon, davr, davron, daqiqa, mudom, sana, sahar va b.

Bo‘lg‘ali oy yuzinda paydo bu zulfu ol,
Bo‘lmadi dardu g‘amdin ko‘nglumning evi xoliy.
Oshufta zulfina jon tushkali zavq birla,
Majnun bikin kechadur payvasta **vaqtu holi**. (“Devon” 2, 246)

Oqibat tushgayman, ey Hofiz, o‘shul jonon bila,
Umr agar bersa manga olamning ichra **fursate**. (“Devon” 2, 226)

Ayni oshiqda izdagil anikim,
Chun bu ayn ichra ul ayon ko‘runur.
Jilvayi husni emda Hofizg‘a
Ushbu so‘zda **zamon-zamon** ko‘runur. (“Devon” 2, 271)

Bo‘lurman podshohi **vaqt doim**,
Tesa Hofizni Mahmud ul Ayozim. (“Devon” 2, 55)

Ko‘zlaring *davrinda* yuz ming fitna bor,
Ko‘zlaringtak fitnayi **davron** qani?! (“Devon” 2, 180)

Husnung sharobi uchun ko‘zumni jom etibman,
Ul jomi may bila san shurbi **mudom** qilg‘il. (“Devon” 2, 4)

Shikasta holima ko‘z uchidin nazar qilg‘il,
Firoq kechasini vasl ila **sahar** qilg‘il. (“Devon” 2, 4)

She’rlarda xususiyat, belgi, xossa va holat anglatuvchi qofiyadosh so‘zlar:

1) **ijobiy belgi, xususiyat anglatuvchi so‘zlar:** *odil, adl, alomat, mumtoz, nazokat, kamol, ma’lum, maqbul, maqsud, halol va b.*

Ishkasta ko‘nglumni nedin jonon yoqar javri bila,
Chun yoqmadi o‘z mulkini javr ila shohi **odile**. (“Devon” 2, 4)

Manim holimni bilmas erdi joni,
Vale so‘zumda bor yuz ming **alomat**. (“Devon” 2, 279)

Sanga yo‘qdur jahon ichra sherike,
Jamolu husn ila **mumtoz** sansan. (“Devon” 2, 85)

Yuz oftob ko‘z bo‘lubon boqsa yuzina,
Ojiz bo‘lur ko‘rub, bila bilmay **kamolini**. (“Devon” 2, 202)

Olmasang, ey jon, niqob mehri yuzungdin,
Bo‘lmas xalqi jahong‘a husnung **ma’lum**. (“Devon” 2, 46)

Bo‘lg‘ay saodat bandaga maqbullar orasida,

Qobil ko‘rub qilsa nazar olamning ichra **muqbile**. (“Devon” 2, 259)

Maqsad manga eshigiyu maqsudi jon jonon erur,

Hosil tilak diydordur bu maqsadu **maqsuddin**. (“Devon” 2, 114)

Hofizo, ushbu g‘azalni ko‘rub aldandi do‘st,

Oriy, so‘z bilguchini sehri **halol** aldadi⁶. (“Devon” 2, 163)

2) **salbiy xususiyat anglatuvchi so‘zlar:** *ayyor(a), battol, baxil, botil, mag‘rur, nuqson, zavol, razil, tannoz, g‘ubor, harom va b.*

Gar tilar bo‘lsa o‘shul dildori **ayyor** o‘zgani,

Man tilaman ul bor erkan o‘zima yor o‘zgani. (“Devon” 2, 193)

Bir bo‘sa zakoti husn bergil,

Qilma bu gado uchun **baxiliy**. (“Devon” 2, 248)

Muhabbatdin o‘ngin so‘z so‘zlar ersang,

Erur ul so‘zlaring barchasi **botil**. (“Devon” 2, 27)

Bor mag‘rur base olam ichinda, lekin

San bikin yo‘qturur husni bila **mag‘rure**. (“Devon” 2, 231)

Xurshid qachon husnina tang to‘sh bo‘la bilgay,

Chun yo‘qdur aning husnina nuqsonu **zavole**. (“Devon” 2, 244)

Yuzi xurshidi olamtobtak ko‘zga ko‘rungal

Jamolu husnda bir zarra **nuqsonini** topmasman. (“Devon” 2, 90)

Jonim bila niyoz sanga ko‘rguzur esam,

Yuz turli noz dilbari **tannoz** qilg‘asan. (“Devon” 2, 73)

⁶ Кўлёмзада: «эрдн».

O‘shaning domani vasling‘a ul dam ichra etkayman,
Qachonkim eltsa bodi sabo gardu **g‘uborimni**. (“Devon” 2, 197)

Halol etdim anga qonimni mankim,
Aningtak yo‘qturur yaxshi **haromi**. (“Devon” 2, 277)

3) **ijobiy psixik holat anglatuvchi qofiyadosh so‘zlar:** *inoyat, iftixor, manzur, rohat, tabassum, shavq, havas, hur, jilva va b.*

Bu qulg‘a ul shahi xo‘bon **inoyat** aylamadi,
Raiyyatim teyu bir dam rioyat aylamadi. (“Devon” 2, 142)

So‘z jahon ichra ko‘p, vale oshiq
Ushbu so‘z birlan **iftixor** aylar. (“Devon” 2, 274)

Gar nazar qilsam yuzunga goh-gohe, ne ajab,
Chun manim holimni bilgan yoru ham **manzursan**. (“Devon” 2, 82)

Manga dard-u jarohatdin o‘ngin rohat qachon bo‘lsun,
Chu mandin ohuyi vahshitak ul **rohatrason** kechdi. (“Devon” 2, 155)

Jon g‘uli xandon bikin topdi farah birla kushod,
Yo labi shirin bila jonon **tabassum** ayladi. (“Devon” 2, 155)

Umrekim aning vasli zamoninda kechibdur,
Umr ul edi-yu boqiy, havo-vu **havas** erdi. (“Devon” 2, 164)

Bu latofatki, saning zotu sifatingda erur,
Qayda bo‘lg‘ay sanga o‘xshash malak-u ham **hure**. (“Devon” 2, 237)

Bol ochib uchdi magastak so‘fiylar joni, vale

Bol tudoqi yangli hargiz suchi **jilva** topmadi. (“Devon” 2, 146)

- 4) **Salbiy psixik holat anglatuvchi qofiyadosh soʻzlar:** *alam, majnun, mahzun, mojaro, mulzam, gʻam, hazar, hazin va b.*

Olami duni daniy javru jafosi elidin

Har nafas siynadin ohim oʻti chakdi **alame**. (“Devon” 2, 4)

Layl ichra agar ul layliyi zulfung yozsang,

Jamʼi ushshoqni oshifta-vu **majnun** aylar. (“Devon” 1, 120)

Zulfi zanjirina kim oshiqi majnun koʻrunur,

Hasratu dard-u balosi bila **mahzun** koʻrunur. (“Devon” 1, 136)

Firoqida koʻnglum birla koʻz aro qondur,

Vale koʻngul bila koʻz **mojarosini** soʻrmas. (“Devon” 1, 245)

Daʼvoyi husn etsa ruxsoring bila oyu quyosh,

Koʻrunur ravshan bu daʼvo birlakim **mulzam** boʻlur. (“Devon” 1, 145)

Lutf aylasun nigoru jafo jongʻa qilmasun

Kim, hajridin bu xasta basi bori **gʻam** chakar. (“Devon” 1, 157)

Olamni yoqar, oʻt chiqar ersa qayu yondin,

Ohim oʻti savdin chiqadur, kel, **hazar** ayla. (“Devon” 1, 22)

Zulfini beqaror qilur boʻlsa tong eli,

Hofiz qaror topmayin ohi **hazin** qilur. (“Devon” 1, 116)

Ul pariypaykar kamandi zulfini shona qilib,

Olam ichra jumla laylolarni **majnun** ayladi. (“Devon” 2, 140)

Hamisha yodi erur munisi dili **mahzun**,

Agarchi otashi hijrondin ayladi ani xun. (“Devon” 2-kitob 115)

Xullas, mumtoz shoirlar ijodi, xususan, she’riyatida istifoda etilgan lug‘aviy birlik, qaysi tilga mansub bo‘lishidan qat’i nazar, o‘zining badiiy niyatga yo‘naltirilgan poetik imkoniyatlarini ko‘rsatish quvvatiga ega. Bugina emas, aslida, mumtoz adiblar o‘z she’rlarida so‘zga bir ilohiy xilqat sifatida qaraganligi bois ham, so‘z o‘z kuch-qudratini to‘la ko‘rsata olgan. Bunga biz yuqoridagi Hofiz Xorazmiyning “Devon”idan o‘rin olgan qofiyaga olingan arabiy so‘zlardan foydala olish qobiliyatini misol qilib olishimiz mumkin.

I. 3. Forscha-tojikcha so‘zlar

Tarixchi B. G‘ofurovning yozishicha, o‘zbek va tojik xalqlari o‘rtasidagi yaqinlik millodiy VI asrda boshlangan. O‘zbek va tojik xalqlari juda uzoq davrlardan beri yonma-yon yashab bir-birlariga doimo xo‘jalik, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy munosabatlarda bo‘lib kelganlar. Ma’lumki, fors-tojik tilidan so‘zlarning o‘zbek tiliga o‘zlashtirilishida quyidagi omillarning alohida roli bor:

a) o‘zbek va tojik xalqlarining qadimdan bir (yoki qo‘shni) hududida, bir xil ijtimoiy tuzum, iqtisodiy va madaniy-ma’naviy muhitda yashab kelayotganligi;

b) o‘zbek-tojik va tojik-o‘zbek ikki tilliligining (bilingvizmining) keng tarqalganligi;

v) tojik-fors va o‘zbek tillarida ijod qilish an‘analariningn uzoq yillar davom etganligi;

d) adabiyot, san‘at, madaniyat, urf-odatdagi mushtaraklik va b.lar.

Hozirgi o‘zbek tilida tojik-fors tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlar orasida **otlar** (*sartarosh, avra, avra-astar, bazm, barg, baxt, daraxt, daraxtzor, hunar, hunarmand*), **sifatlar** (*badbo‘y, badjahl, baland, boraver, barvasta, bardam, barzangi, barra, baxtiyor, bachkana, ozoda, toza*), **ravishlar** (*bajonidil, banogoh, do‘stona, tez, bazo‘r, astoydil, chunon*), bog‘lovchilar (*chunki, yoki, agar, garchi, ham*) **undovlar** (*balli, dod*), yuklamalar (*xo‘sh, xuddi*), **modal so‘zlar**(*chunonchi, binobarin*) uchraydi.

Hofiz Xorazmiy ham o'zbek mumtoz adabiyoti vakillarining an'analarini mahorat bilan davom ettirgan holda fors-tojikcha so'zlardan va bu til ichki imkoniyatlaridan o'rnida foydalana olgan ijodkor hisoblanadi.

Shoir Hofiz Xorazmiy ijodida qofiyaga olingan fors-tojik tilidan o'zgartirilgan so'zlarda:

a) so'z oxirida undosh tovushlarning qatorlashib kelishi ancha keng tarqalgan: *barg, mard, go'sht, daraxt, karaxt, do'st, past, kaft, farzand* kabi. (Umumturkiy so'zlarda bu holat kam uchraydi);

b) kuchsiz lablangan "o" unlisi so'zning barcha bo'ginlarida qo'llanadi: *ohang, nobud, bahor, obodon, peshona, judo, paydo, zebo, shaydo* kabi.

Yaratg'an bori qilg'ali jahonni yo'qdin **paydo**,

Jamolu husnina barchani qildi oshiqu **shaydo**.

Jamoli oftobini jahong'a jilva qilg'ali,

Ko'rarsang bordur (ur) har zarraning joninda yuz **savdo**.

Qachon oyinayi joning jamolindin jilo topsa,

Jahon ichra ko'rungay erdi barcha dilbari **zebo** ("Devon" 1, 1)

Dunyoyi dunni tark etib, ey do'st, din tila,

Ushbu jahong'a boqma, jahon **ofarin** tila.

Haq yor, yor birla to'ludur jahon, vale

Haqdin safovu diydayi **diydorbin** tila ("Devon" 1, 3)

Man jonni ravon qildim o'shul sarviravong'a

Kim, kelmakidin tegdi safo jonu **ravong'a** ("Devon" 1, 26)

Mansur bo'lmoq izdasa xalloj ishqda,

Aylar nasibasini aning **do'stdori** dor. ("Devon" 1, 26)

Necha bo'lg'ay jonima bedodingiz,

Oqibat bergan xudoyim **dodingiz**. (“Devon” 1, 223)

Boshg‘ara bilmadi nomard muhabbat yo‘lini,

Ishq yo‘lin chu bosharmag‘a kerak **mardi mard** (“Devon” 1, 73)

G‘amzayi sho‘x bila bizga **shabixun** qilma,

Ashk chun obi ravon, ravgini gulgun qilma. (“Devon” 1, 18)

Nihon edi ko‘ngulu jonda sirri ishq, vale

Karashma birla nihon sirin **oshkor** qilur (“Devon” 1, 114)

Bundan tashqari, adibning she‘riyatida uchraydigan fors-tojikcha qofiyalarda bir qator prefiks va suffikslar ham uchraydi.

– “**be-**”, “**ba-**”, “**no-**”, “**-ham**”, “**bar-**“, “**kam-**”, “**xush-**“ old qo‘shimchali so‘zlar; “**-kor**”, “**-zor**”, “**- xo‘r**”, “**-parvar**”, “**kam-**”, “**-bop**”, “**-boz**”, “**-do‘z**”, “**-namo**”, “**-paz**”, “**-furush**” kabi so‘zlar adib lirikasida qofiyaga olingan so‘zlarning ayrimlarida uchraydi.

Bar+arabcha: barkamol

Dildorning‘ jamoli base **barkamol** erur,

Jonimni ishq o‘tig‘a solan ul jamol erur (“Devon” 1, 103)

Bar+fors: barno‘sh

Sharob o‘rninga qonim ichdi ulkim

Labi shirini erur no‘sh **barno‘sh** (“Devon” 1, 256)

Xush+fors

Hofizo, bo‘stonning ichra bulbuli xush kuylar,

Ushbu so‘zni eshitib tarki **xushovoziy** qilur (“Devon” 1, 117)

Guliston xurramu xush bo‘ldi emdi bir nigor izda,

Tuzub zavqu safo sozin sharobi **xushguvor** izda (“Devon” 1, 11)

Fors+zor

Qachonkim yuzini dildor rashki **lolazor** aylar.

Mening bikin hazor ul yuzga mushtoqini **zor** aylar. (“Devon” 1, 121)

Ochsa yuzining gulistonini ul gulzori husn,

Ko‘zum oyinasini aksi bila **gulzor** etar. (“Devon” 1, 121)

Shoir ijodida qofiyaga sifatida qo‘llangan forsiy so‘zlar haqida to‘xtalar ekanmiz, Hofiz Xorazmiyning fors-tojik tilining leksik, fonetik birliklaridan samarali foydalanganligiga hamda umumturkiy, arabiy tili bilan bir qatorda fors-tojik tili imkoniyatlarini ham she‘riyatiga mohirona tatbiq eta olganligiga guvohi bo‘lamiz. Har bir baytda qo‘llanayotgan qofiyaning turli xil ma‘nolarini ochib berish, undan tashqari o‘zlashma so‘zlarning tub mazmun-mohiyatiga yetib borish, albatta, Hofiz Xorazmiyning yuksak badiiy mahorat va ilmiy salohiyat egasi ekanligidan dalolat beradi.

I.4. Arxaik va shevaga xos so‘zlar

Asrlar davomida tillar bir-biridan so‘z olib, so‘z berib shakllanib kelmoqda. Bu ham bir imkoniyat. Ushbu imkoniyatdan samarali foydalanib betakror asarlar yaratayotgan, xalq qalbini, orzu-armonlarin kuylayotgan ijodkorlar asarlarida o‘z aksini topadi.

Til tizim sifatida uzluksiz harakatda, rivojlanishda bo‘lib turadi, bu uning ijtimoiy mohiyatidan kelib chiqadi: til va jamiyat, til va ong, til va tafakkur o‘rtasidagi ikki tomonlama aloqadorlik ularning bir-biriga ta‘sirini belgilaydi – jamiyatda bo‘lib turadigan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ilmiy texnikaviy taraqqiyot, iqtisodiy-ma‘rifiy sohalardagi islohatlar tilning lug‘at boyligida yangi-yangi so‘z va atamalarning yuzaga kelishini, ayni paytda ma‘lum so‘z-leksemaning eskirib tarixiy katekoriyaga aylanishini taqozo qiladi. Bu jarayon tilning lug‘at boyligida istorizm, arxaizm va neologizm kabi leksik birliklarni yuzaga keltiradi.

Eskilik bo‘yog‘i bor til birligi **arxaizm** deyiladi (yunoncha archaios – “qadimgi”). Arxaizm yunoncha – qadimgi, ko‘hna so‘zidan olingan bo‘lib, eskirib, iste‘moldan chiqib qolgan so‘z yoki iborani anglatadi. Arxaizmlar quyidagi turlarga ajratiladi: leksik arxaizmlar (arkon, mirzo), fonetik arxaizmlar (ersa, birlan, emdi), morfologik arxaizmlar (bilur, turur, bo‘lgay, burung‘i). Hofiz

Xorazmiy devonlariga kiritilgan gʻazallarining qofiya tizimi mazmunan boy. Quyida arxaik va shevaga xos soʻzlarning qofiya sifatida qoʻllanganini koʻrib oʻtamiz. Gʻazallarda araxaik leksemalar uchramasa ham affikslar arxaiklashuvi kuzatilgan. Xorazm shevasiga xos xususiyatlardan baʼzi bir unsurlari qofiyalarda aks etgan. Masalan:

Koʻz qaqmagʻil – koʻz qoqmagin

Aytgʻan ora saning jononing erurman teyu,

Koʻzung uchi birla nogoh oʻzgaga koʻz **qaqmagʻil**. Baytda ham sheva talaffuzi va eskirish xususiyatini saqlagan qaqmagʻil soʻzi “koʻz qoqmoq” yaʼni “qaramoq” maʼnosida qoʻllangan.

Guvo – guvoh

Holingʻa koʻz uchi bila gah-gah nazar aylab,

Ikki qaro kofirni bu xolingʻa **guvo** qil.

Tavon – tovon

Olding, ey jon, koʻnglumni taqi zoyiʻ qilding,

Zoyiʻ etgan koʻnglumni manga, kel, **tavon** qil.

Ahval – ahvol

Sandin oʻzga koʻra bilmadi koʻzum dildore,

Mundayinkim sani koʻrmasa erur bas **ahval**.

Qatil – qotil

Har necha oʻlturur esang, ey jon, man oʻlmasam,

Zinda boʻlur chu ishq ila har kim boʻlur **qatil**.

Xoshok – xashak

Koʻzgʻa ilgay oqibat man ojizi miskinni teb,

Oʻz oʻzumni ishqning yoʻlinda **xoshok** ayladim.

Qoʻshimchalarning eskirgan shakllari qofiya sifatida qoʻllangan soʻzlar tarkibida koʻp uchraydi. Bu oʻsha davr talabi bilan eskirgan shakl hisoblanmasada, hozirgi tilshunoslik nuqtayi nazaridan arxaik affikslardir. Masalan:

Olgʻon – olgan

Joni shirinkim olur shirin tudoqi ol ila,

Andin o‘zga ol birla jonim **olg‘on** bo‘lmasun.

Yolonumdur – yolg‘onimdir

Va‘dayi vasling‘a qilmadi vafo,

Va‘dasi asri **yolonimdur** manim.

Yolong‘a – yolg‘onga

O‘q yanglig‘ qadin‘ rost mani o‘rtadi temay,

Ul sharti buzuq, qavli **yolong‘a** ne tegayman.

Demak, Hofiz g‘azallarida makon va zamon koloritini ifodalab keluvchi shevaga xos va arxaik so‘zlar qofiya sifatida ahamiyatli o‘ringa ega.

II BOB. HOFIZ XORAZMIY IJODIDA QO'LLANGAN RADIFLAR

II.1. Umumturkiy so'zlar

Mumtoz adabiyotda qofiya anchagina holatlarda radif bilan birgalikda qo'llanilib kelgan. Radif – “izma-iz keluvchi” ma'nosini ifodalovchi so'z bo'lib, adabiyotshunoslikda qofiyadan keyin kelib aynan takrorlanuvchi so'z yoki so'zlar birikmasini anglatadi⁷. Radif baytda ilgari surilayotgan g'oyaga kitobxonning fikrini jalb qilish vazifasini bajaradi. Baytning ta'sirchanligini, ohangdorligini kuchaytiradi. Takrorlanish davomida diqqatimizni misralarda talqin etilayotgan fikrni ulug'lash yoki rad etishga chorlaydi va har bir baytda mazmunan alohidalik kasb etadi. Radif qo'llashda ijodkordan badiiy tafakkur va mahorat talab etiladi. Ham shaklan, ham mazmunan betakror bo'lgan leksik birliklarni qo'llash she'rga mislsiz go'zallik baxsh etadi. Shakl va mazmun uyg'unligi radif uchun juda zaruriy talab hisoblanadi.

Biz ushbu ishimizda Hofiz Xorazmiy ijodida radif sifatida qo'llangan so'zlar tahliliga e'tibor qaratmoqchimiz. Ijodkor o'z g'azallarida radif sifatida qo'llagan so'zlarning qaysi qatlamga mansubligi: umumturkiycha, forsiycha va arabcha ekanligi tadqiqot markazida turadi.

Hofiz Xorazmiy ijodiy merosi ikki devon orqali bizga qadar yetib kelgan. Bu devonlarga 1052 ta g'azal kiritilgan. Tadqiqotlarimiz natijasida shunisi ma'lumki, 540 ga yaqin g'azal muraddif g'azal hisoblanib, 51% ni tashkil etadi. Radif sifatida qo'llangan so'zlarning aksariyati fe'l so'z turkumi (to'liqsiz fe'llar) hisoblanadi. “Devon” da bundan tashqari olmoshlar, ot, sifat, modal so'zlarning radif bo'lib kelganiga guvoh bo'lamiz (I va II kitoblarga kiritilgan g'azallarning umumiy soni 1052 tani tashkil qilib, 1-548 ta g'azal “Devon” I kitob , 549-1052-g'azallar “Devon” II kitobdan o'rin olgan).

“Devon”larni tahlil qilishimiz davomida shunga guvoh bo'ldikki, ikki devonga jamlangan g'azallarning 413 tasi (77,7%)ga radif sifatida fe'l so'z turkumi (to'liqsiz fe'llar bilan birgalikda) qo'llangan. Radif sifatida qo'llangan

⁷ Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. T., “Sharq” – 1998. 156-b.

so'zlarning aksariyati fe'l so'z turkumi bo'lsa-da, devonda boshqa so'z turkumlari ham shakl va mazmun jihatdan uyg'unlik hosil qilib, shu asosida radif bo'lib kelgan. Masalan, ot so'z turkumi 51 ta g'azal (9,5%), olmosh so'z turkumi 20 ta g'azal (3,7%), sifat 10 ta g'azal (1,8%), ravish 7 ta g'azal (1,3%), modallik ma'nosini ifodalovchi so'zlar 15 ta g'azal (2,7%), yordamchi so'zlar 13 ta g'azal (2,4%) radifi sifatida g'azal ohangdorligiga hissa qo'shgan. Bu o'z navbatida Hofiz Xorazmiyning ijodiy mahorati va badiiy salohiyatining yorqin isbotidir.

“Devon”da quyida keltirilgan fe'llar radif sifatida badiylikni yuzaga chiqargan. Bizning diqqat markazimizda turgan masala shu so'zlarning qaysi qatlamga – umumturkiy, forsiy yoki arabiy qatlamga oid ekanligini tahlil etishdir. O'zbek tilining izohli lug'ati orqali fe'l so'z turkumining qaysi qatlamga oid ekanligini dalillaymiz.

Umumturkiy qatlamga oid fe'llar (forsiy, arabiy qatlamga oid so'zlar bundan mustasno. Ularga keyingi boblarda to'xtalamiz):

1. “**Qilmoq**” fe'li va uning turli shakllari juda keng qo'llangan (63 ta g'azal)”: **Qil** (560-, 561-, 562-, 563-, 569-, 570-, 571-, 572-, 573-g'azallar); **qilma** (63-, 30-g'azallar); **qilg'il** (553-, 554-, 555-, 556-, 557-g'azallar); **qilmag'il** (558-, 578-g'azallar); **qilurman** (730-g'azal); **qilursan** (691-, 692-, 706-g'azallar); **qilg'aman** (731-g'azal); **qilg'asan** (690-, 696-, 719-g'azallar), **qilur** (219-, 220-, 221-, 222-, 223-, 224-, 225-, 226-, 227-, 228-g'azallar); **qilmas** (576-g'azal), **qiladur** (148-g'azal); **qilibdur** (149-150-g'azallar); **qilmasmu** (792-g'azal); qabul qilmas (477-g'azal), **qildilar** (324-, 331-, 332-g'azallar), **qilaturur** (250-g'azal); nazar qilur (247-g'azal); qilg'il talab (79-78-g'azal); **qilding yana** (32-31-g'azallar); **qildim** (621-, 622-, 623-, 629-g'azallar); **qilayim** (613-, 614-, 615-g'azal), **ne qilsun** (679-680-g'azallar); **qilasi** (962-963-g'azal); **qilisar** (340-g'azal, I kitob).

Qilmoq fe'li umumturkiy so'z bo'lib, radif sifatida 60 g'azal tarkibida kelgan. Uchta g'azal tarkibida qo'shma so'z shaklida o'zlashma so'zlar bilan birgalikda radif vazifasini bajargan.

Radif sifatida qo'llangan so'z g'azalning har bir misrasida ishtirok etsa-da, bu

soʻzlar mazmuniy jihatdan alohidalikka ega, yaʼni ularda bir-biriga oʻxshagan maʼnolar izohlangan. Bu, birinchidan, gʻazalning badiiyligini oshirsa, ikkinchidan, gʻazalnavisning ijodiy mahoratini koʻrsatib beradi. Bir soʻzning bir necha maʼnolaridan unumli foydalana olgan Hofiz Xorazmiy ijodida ham shunday jarayonni kuzatamiz. Shoir ijodini tahlil qilar ekanmiz, hozir diqqatimiz markazida turgan navbatdagi soʻzlarga – feʼl soʻz turkumi va uning turli grammatik shakllari tahliliga toʻxtalib oʻtamiz.

2. “Boʻlmoq” feʼli (49 ta gʻazal):

Boʻl (569-, 570-, 571-, 572-, 573-gʻazallar); **boʻlur** (273-, 275-, 276-, 277-, 278-, 279-, 280-, 281- gʻazallar); **ne boʻlur** (338-gʻazal); **qachon boʻlur** (282-gʻazal); **qanda boʻlur** (274-gʻazal); **boʻlibtur** (158-, 177-gʻazallar); **boʻlubturur** (257-gʻazal); **boʻlmish** (493-gʻazal); **boʻlmas** (470-471-gʻazallar); **boʻlisar** (339-gʻazal); **boʻlayim** (616-617-gʻazallar); **boʻldum** (624-, 625-, 626-, 627-, 628-, 636-gʻazallar); **boʻlmadim** (630-gʻazal); **boʻlubdurman** (738-gʻazal); boʻldim oqibat (95-gʻazal); **boʻlgil** (574-, 575-, 576-, 577-gʻazallar); **boʻlgʻasan** (688-gʻazal); **qachon boʻlgʻaysan** (715-gʻazal); **boʻlmassan** (718-gʻazal); boʻlasi (959-gʻazal); **boʻlgʻusi** (955-gʻazal) **boʻlmasmu** (789-gʻazal); **boʻlmasun** (683-, 684-, 685-, 686-, 687-gʻazallar).

“Boʻlmoq” feʼli umumturkiy soʻz boʻlib 48 ta gʻazal radifi boʻlib kelgan. “Boʻldim oqibat” (turkiycha + arabcha) bu qatordan mustasno. Arxaizm va shevaga xos soʻzlar ham qoʻllangan. Bunday soʻzlarga keyingi boblarda toʻxtalib oʻtamiz.

3. “Koʻrmoq” feʼlining tushlangan shakllari Hofiz Xorazmiy ijodida radif sifatida qoʻllangan (40 ta gʻazal).

Koʻrdi (873-874-gʻazal); **koʻrdum** (633-634-gʻazallar); **koʻrmadum** (631-632-gʻazallar), **koʻrinadur** (173-gʻazal); **koʻrnadur** (172-gʻazal); **koʻrgasan** (694-gʻazal); **koʻrgaysan** (698-, 717-gʻazal); **koʻrinur** (262-, 263-, 264-, 265-, 266-, 267-, 268-, 378-gʻazallar); **koʻrunmas** (463-464-gʻazallar, I kitob, 578-gʻazal, II kitob); **koʻrunsa** (44-gʻazal); **koʻrundi** (836-, 841-gʻazallar); **koʻrunmadi** (831-, 832-, 833-, 835-gʻazallar); **koʻrmas** (468-gʻazal); **koʻrarman**

(729-g'azal); **ko'rguzur** (269-,270-, 271-, 272-g'azallar); **ko'rguzdi** (878-g'azal); **bo'la ko'rgil** (543-, 544-, 545-g'azallar).

“Ko'rmoq” fe'li ham sof umumturkiycha so'z sifatida 40 ta g'azalda radif sifatida qo'llangan.

4. To'liqsiz fe'llar ham radif sifatida takrorlanib, g'azallar badiiyligi va tasviriyligida o'z o'rniga ega (44 ta g'azal).

Emish (497-, 498-g'azal); **emas** (459-, 472-g'azallar); **ermas** (458-, 466-g'azallar); **erur** (194-g'azaldan 216-g'azalgacha); **sandin erur** (217-g'azal); erur iyd

(126-g'azal); **edi** (865-, 867-g'azal); **qilg'ay edi** (866-g'azal); **erdi** (864-g'azal); **kerak erdi** (863-g'azal); **emdi** (881-g'azal); **bo'lur emdi** (882-g'azal). Undan tashqari, emas to'liqsiz fe'lining eskirgan shakli ham uchraydi: **dagul** (566-, 567-, 568-g'azallar), **dagulmu** (788-, 790-g'azallar), **dagulmudur** (190-g'azal) .

To'liqsiz fe'llar ham turkiy qatlam so'zlari bo'lib, ularning turli morfologik shakllari g'azallarning mazmun-mohiyatini ochib berish uchun xizmat qilgan.

5. “Aylamoq” fe'lining radif sifatida qo'llanilishi (27 ta g'azal):

Ayla (38-g'azal); **aylar** (229-g'azaldan 235-g'azalgacha); **ayladim** (619-620-g'azallar); **aylang** (542-g'azal); **aylagil** (551-, 564-g'azal); **aylamagil** (565-g'azal); **aylarsan** (693-g'azal); **aylamasmusan** (720-g'azal); **aylabdur** (192-g'azal); **ayladi** (815-g'azaldan 822-g'azalgacha); **ayladilar** (335-g'azal); **aylamadi** (823-g'azal). Bu so'z sof turkiycha so'z bo'lib, sodda shaklda radif sifatida qo'llangan. Tilamoq, topmoq, etmoq, kelmoq, bilmoq fe'llari ham shu shaklda.

6. “Tilamoq” so'zi va uning shakllari(18 ta g'azal):

Tila (2-, 17-g'azallar); **tilar** (309-, 310-, 311-, 312-, 313-, 314-, 342-g'azallar); **tiladim** (638-g'azal); **tilaman** (745-746-g'azallar); **tilagil** (46-g'azal, 547-g'azal); **ne tilarsan** (697-g'azal); **tiladi** (847-848-g'azallar).

7. “Topmoq” fe'li (18 ta g'azal):

Topdi (834-, 838-, 875-876-g'azallar); **topti** (830-g'azal); **topmadi** (829-, 852-g'azallar); **topulmadi** (823-, 849-, 850-, 851-g'azallar); **topman** (723-, 739-

g'azallar); **topmasman** (722-g'azal); **topmasa** (42-g'azal); **topar** (347-348-g'azallar); **topulmas** (584-g'azal).

8. “**Etmoq**” fe’li va uning radif sifatidagi shakllari (21 ta g’azal):

Etar (236-g’azaldan 246-g’azalgacha); **etmas** (467-g’azal); **etgil** (598-g’azal); **etmagil** (597-g’azal); **etman** (724-g’azal); **etalim** (618-g’azal); **etmasun** (682-g’azal); **etgasan** (689-g’azal), **etmadi** (824-, 825-, 826-g’azallar).

9. “**Kelmoq**” fe’li 13 g’azalning radifi sifatida turli shakllarga egaligini ko’rish mumkin:

Kelur (374-g’azal); **keltur** (258-g’azal); **kelsa** (43-g’azal); **kelsa hujraga** (40-g’azal); **kelmasmu** (791-g’azal); **kelgay** (810-g’azal); **keldi** (842-, 843-, 844-g’azallar); **kelturdi** (871-872-g’azallar); **kelmagi** (1043-g’azal); **kelturur** (159-g’azal).

10. “**Bilmoq**” fe’li quyidagi grammatik shakllari orqali (13 ta g’azal) radif sifatida qo’llangan:

Bilur (349-, 351-g’azallar); **bilinur** (356-g’azal); **bilurmu** (793-g’azal); **qila bilur** (350-g’azal); **qila bilman** (740-741-g’azal); **bilman** (742-743-g’azallar); **bilmasman** (744-g’azal); **bilmas** (456-g’azal); **bo’la bilmas** (457-g’azal); **kecha bilgay** (808-g’azal); **bilmadi** (889-g’azal).

11. “**Bormoq**” fe’li ham turli shakllarda radif sifatida qo’llangan (8 ta g’azal).

Bordi (853-g’azal); **borur** (354-355-g’azallar); **bormas** (580-g’azal); **boradur** (147-g’azal); **qanda borursan** (704-g’azal); **ravon bordi** (839-840-g’azal).

12. “**Yetmoq**” fe’li 7 ta g’azalning radifi so’zi bo’lib kelgan:

Yetishdi (854-g’azal); **yetishmas** (454-455-g’azal); **yetishdim** (612-g’azal); **yetishgay** (812-g’azal); **yetmadi** (827-, 837-g’azallar).

13. “**Kechmoq**” fe’lining shakllari (6 ta g’azal):

Kechdi (845-g’azal), **kechmagil** (579-580-g’azallar); **kechar** (305-g’azal); **birla kechar** (306-g’azal); **kechibturur** (307-308-g’azallar).

14. “**Chakar**” (chekar) fe’li (7 ta g’azal):

Chakdi (846-, 883-g’azal); **chakar** (300-, 301-, 302-, 303-, 304-g’azal).

15. “**Turar**” so’zi 5 ta g’azal radifi sifatida qo’llangan:
Turar (253-, 254-, 255-, 256-g’azallar); **turur** (249-g’azal).
16. “**Tushmoq**” fe’li (7 ta g’azal):
Tushkay (811-g’azal); **tushdi** (856-857-g’azal); judo tushti (53-g’azal); judo tushdi (858-g’azal); **tushar** (307-308-g’azallar).
17. “**Demoq**” fe’li (4 ta g’azal):
Ne tegayman (728-g’azal); **dedilar** (322- 323, 379-g’azal).
18. “**Bermoq**” fe’li (4 ta g’azal):
Berur (352-353-g’azallar); **bergay** (809-g’azal); **bermaslar** (326-g’azal).
19. “**Boshlamoq**” fe’li (3 ta g’azal): **boshlar** (315-, 316-, 317-g’azallar).
20. “**Izlamok**” (“izdamok shaklida” 8 ta g’azal radifi sifatida kelgan): **izdang** (530-g’azal); **izda** (18-19-g’azal); **izdagil** (549-g’azal); **izdar** (343-, 344-, 345-, 346-g’azallar).
21. “**Bog’lamoq**” (3 ta g’azal): **bog’lar** (320-321-g’azallar); **bog’ladi** (887-g’azal).
22. “**Anglamoq**” (2 ta g’azal): **angladim** (645-g’azal); **anglomas** (473-g’azal).
23. “**Yarashmoq**” (2 ta g’azal): **yarashur** (357-g’azal), **yarashmas** (474-g’azal).
24. “**So’zlamok**” (1 ta g’azal): **so’zlatur** (365-g’azal).
25. “**Eltmok**” (2 ta g’azal): **eltur** (363-364-g’azal).
26. “**Tutmok**” (2 ta g’azal): **tutar** (417-g’azal); **tutalim** (640-g’azal).
27. “**O’ynamoq**” (4 ta g’azal): **o’ynag’il** (550-g’azal); **o’ynar** (375-g’azal); **o’ynagay** (813-g’azal); **o’ynadi** (814-g’azal).
28. “**Bag’ishlamok**” (2 ta g’azal): **bag’ishlar** (334-, 377-g’azal).
29. “**Olmoq**” (2 ta g’azal): jon olur (373-g’azal); **oldi** (862-g’azal).
30. “**Yoqmoq**” (yonmoq, 2 ta g’azal): **o’tga yoqar** (361-g’azal); **yonar** (360-g’azal);
31. “**Kuymok**” (2 ta g’azal): **kuydi** (864-g’azal); **kuydurur** (358-g’azal).
32. “**So’ramok**” (“So’rmok” shaklida 6 ta g’azalda radif sifatida qo’llangan):

so'rmasun (681-g'azal); **so'rmassan** (716-g'azal); **so'rmadi** (886-g'azal); **so'rg'il** (548-g'azal); **so'rmas** (469-579-g'azallar).

33. **“Aldamoq”** (2 ta g'azal): **aldadi** (860-861-g'azal).

34. **“Eshitmoq”** (2 ta g'azal): **eshitgil** (552-g'azal); **eshitmadi** (888-g'azal).

35. **“Sig'moq”** – **sig'mas** (575-g'azal).

36. **“Kulmoq”** – **kular** (372-g'azal).

37. **“Yig'lamoq”** – **ig'lar** (371-g'azal).

38. **“O'lturmoq”** – **o'lturur** (260-g'azal).

39. **“Uyalmoq”** – **uyalur** (376-g'azal).

40. **“Sinmoq”** – **sindirur** (359-g'azal).

41. **“Saqlamoq”** – **saqlar** (333-g'azal).

42. **“Aytmoq”** – **kim aytur** (261-g'azal); **ayturman** (732-g'azal).

43. **“Tortmoq”** – **tortadur** (181-g'azal)

44. **“Ochmoq”** – **ochildi** (885-g'azal)

45. **“O'rganmoq”** – **o'rgandi** (877-g'azal).

46. **“O'rtamoq”** – **o'rtadi** (870-g'azal).

47. **“Solmoq”** – **soldi** (879-g'azal)

48. **“Tegmoq”** – **tegayim** (639-g'azal).

49. **“O'lmoq”** (bo'lmoq) – **o'lalim** (641-g'azal).

50. **“Sevmoq”** – **savdum** (635-g'azal).

51. **“Chiqmoq”** – **chiqar** (362-g'azal).

52. **“Qiladur yor”** (337-g'azal).

53. **“Qilur noz”** (450)-g'azal

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, 536 ta g'azal muraddaf g'azal hisoblanib, ularning aksariyati fe'l so'z turkumiga oid so'zlarning turli shakllaridan iboratdir. Ularning umumiy hisobi 417 ta (77,7 %) g'azalni tashkil etadi. Ikki devonda radif sifatida qo'llangan so'zlar faqat fe'l so'z turkumigagina tegishli bo'lib qolmay, olmoshlar, ot, sifat, modal so'zlarni ham uchratishimiz mumkin. Shu o'rinda tahlil usulimizni nima uchun so'z turkumlari tomon burganimizni izohlash o'rinli deb bildik. Radif sifatida qo'llangan so'zlarning umumturkiy, forsiy yoki arabiy so'zlar

ekanini aniqlashda ularning turkumlari muhim ahamiyatga ega. Tilshunolikka oid manbalardan ma'lumki, o'zbek tilida qo'llanuvchi fe'l so'z turkumining deyarli barchasi umumturkiy so'zlardir (umumturkiy so'zlarning umumiy xususiyatlariga hamda "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga asoslangan holda shu xulosaga kelish mumkin).

Yuqoridagi tahlil natijalaridan ma'lumki, umumturkiy radiflar (fe'l so'z turkumi) quyidagicha:

Fe'l so'z turkumi radif sifatida 413 g'azalning bezagi bo'lib kelgan bo'lsa, bu butun devondagi radifli g'azallarning 77,7% ini tashkil etgan edi. Ammo ularning tarkibida arabiy, forsiy qatlamga oid so'zlar bilan qo'shma so'z tashkil qilgan birliklar ham mavjud. Ularni sof turkiy so'z deb hisoblay olmaymiz. Faqat sof turkiy so'zlar esa 405 g'azalning radifi bo'lib kelgan. Bu esa fe'l so'z turkumi radif sifatida qo'llangan umumiy g'azallarning 98% tashkil etsa, devonlardagi butun muraddaf g'azallarning 75,5% ini tashkil etadi.

Muraddaf g'azallarni tahlil qilishda davom etib, Hofiz Xorazmiy ijodida radif sifatida qo'llangan boshqa so'z turkumlarining miqdori, o'rni va ahamiyatiga to'xtalamiz.

Olmoshlar ham umumturkiy so'zlar hisoblanib, barcha tilda qo'llanadigan olmoshlar, xuddi fe'llar kabi, shu tilning o'z qatlami hisoblanadi.

Olmosh so'z turkumidan ham unumli foydalangan ijodkor, uning turli shakllarini radif sifatida keltirib, g'azallarini bezagan.

So'roq olmoshi: qandadur (188-189-g'azallar), qandasan (708-, 721-g'azallar), qani (890-, 891-, 892-, 893-, 894-, 895, 896-g'azallar).

Kishilik olmoshi: man (735-736-g'azallar), mani (923-g'azal), manim (657-g'azal), san (699-g'azal), sansan (713-g'azal).

O'zlik olmoshi: o'zga (62-g'azal), o'zgani (921-g'azal), o'zumni (922-g'azal).

Olmosh turkumiga oid so'zlar I va II "Devon" tarkibidagi 20 g'azalning (3.73 %) radifi sifatida qo'llanganini ko'rishimiz mumkin. Bu esa umumturkiy so'zlarning salmog'ini yana-da oshiradi. Yuqoridagilardan ayon bo'lmoqdaki,

Hofiz Xorazmiy ijodida umumturkiy soʻzlar keng qoʻllangan. Turkiy til mavqei saqlanib qolishida Hofiz Xorazmiy ijodining ahamiyatli oʻrni bor, desak, yanglishmagan boʻlamiz.

Ot soʻz turkumi ham radif sifatida alohida oʻringa ega. Ular tarkibida boshqa tillardan oʻzlashgan leksik birliklar bormi? Quyida shu savolga javob izlab koʻramiz.

Safar, farz, xat, sheʻr, hojat, shikoyat, ehtiyoj, olam, jamol, gʻazal, balo, soqiy, Sheroziy – arabcha; Yor, paydo, gado, dard, yod, navo, doʻst, orzu –forscha.

Ishq (513-514-gʻazallar), ishqing (537-gʻazal), **tilagi**, yor (336-gʻazal), safar (416-gʻazal), **oy-u quyosh** (482-483-gʻazallar); farz (500-gʻazal); xat (502-503-gʻazal), sheʻr (218-gʻazal), paydo (5-, 22-, 145-gʻazallar), **soʻzi** (1052-gʻazal), **soʻzungmudur** (191-gʻazal), **qaygʻusi** (956-gʻazal), gadosi (960-gʻazal), dardi (880-gʻazal), yodini (942-gʻazal), **kishi** (950-951-gʻazal), **eshiginda** (66-gʻazal), navo (67-gʻazal), ey doʻst (80-, 81-,82-,83-, 84-, 91-gʻazallar), erur doʻst (89-gʻazal), doʻst (88-87-gʻazallar), erursan doʻst (86-gʻazal), etsa doʻst (85-gʻazal), ne hojat (112-gʻazal), shikoyat (113-gʻazal), ehtiyoj (119-gʻazal), olam (611-gʻazal), jamol (595-596-gʻazallar), orzu (794-795-gʻazallar), gʻazal (584-gʻazal), **koʻngul** (581-, 582-, 583-gʻazallar), balo (39-gʻazal), ey soqiy (1034-gʻazal), Sheroziy (1038-gʻazal).

Ot soʻz turkumiga oid soʻzlar 51 gʻazalning radifi sifatida (9,5%) ushbu gʻazallar ohangdoshligini boyitganligini koʻrib oʻtdik. Ularning oʻz yoki oʻzlashgan qatlam ekanligini tahlil qilish Hofiz Xorazmiy ijodiy mahorati, soʻz qoʻllash salohiyatini ochib berish bilan barobar. Hozirda diqqat markazimizda turgan masala – aynan shu soʻzlarning umumturkiy, arabiy yoki forsiy soʻzlar ekanini aniqlash. Biz bu bobda faqat umumturkiy soʻzlar haqida fikr yuritganimiz uchun turkiy soʻzlarning radif sifatida qoʻllanishiga toʻxtalamiz.

Ot soʻz turkumiga oid quyidagi umumturkiy soʻzlar Hofiz Xorazmiy ijodida radif sifatida qoʻllangan:

Tilagi, oy-u quyosh, soʻzi, soʻzingmudur, qaygʻusi, kishi, eshiginda, koʻngul. Jami 12 gʻazalning radifi boʻlib kelgan bu soʻzlar turkiy soʻzli radif sifatida

muraddif g'azallarning 2,2% ini tashkil etadi. Ot so'z turkumi radif sifatida 51 g'azal tarkibida kelgan edi. Ot so'z turkumiga oid umumturkiy so'zlar 12 ta g'azal tarkibida kelib 23,5 % ni tashkil etadi.

Yuzingizni ko'rgali sharmandadur **oyu quyosh,**

Husningizni savgali ham bandadur **oyu quyosh.**

Jondin suchi labingdagi shakar **so'zingmudur,**

Yo shahd sof qand-i mukarrar **so'zungmudur?**

Jonimni fido qilg'ay edim yor **eshiginda,**

Bo'lsa anga bir zarracha miqdor **eshiginda.**

Farah berur manga ul sarvi gul'uzor **so'zi,**

Netakki bulbula xush kelsa marg'zor **so'zi.**

Soldi yonar o'tga yana jonimni jonon **qayg'usi,**

Mandin bo'lib bir yon qilur bag'rimni biryon **qayg'usi.**

Assalomu alayka, ey sulton **kishi,**

Soyayi yazdon erursan, jon **kishi.**

Bu nozu sheva bilankim olur nigor **ko'ngul,**

Ajab emasdur agar bo'lsa beqaror **ko'ngul.**

Baytda ta'kidlanayotgan fikrni yana-da ta'sirchanligini oshirishda radifning o'rni juda ahamiyatli. Ayniqsa, uni umumturkiy so'z bilan ifodalash nur ustiga a'lo nur bo'ladi.

Sifat so'z turkumi ham radif sifatida ahamiyatli. Ularning orasidan sof turkiy so'zlarni ajratib, tahlil markaziga olamiz.

Oshkor, xush, judo – forsha; latif, forig' - arabcha

Yiroq (515-g'azal), oshkor (341-g'azal), latif (510-g'azal), forig' (arabcha –

holi, bo'sh; egallanmagan, befoyda⁸-508-g'azal), xush (486-g'azal), xushdur (153-g'azal), **yaxshi** (952-953-g'azallar), tushdim judo (52-g'azal), judo (51-g'azal).

Shoir sifat so'z turkumining betakror jozibasi orqali ikki devonga kiritilgan g'azallar jozibasini oshirgan, shakl va mazmun jihatidan uyg'unlikka erishgan (10 ta g'azalga radif sifatida qo'llangan so'zlar devonning 1,8 % ini tashkil etadi). Ulardan faqat uchtasidagina (0,5%) umumturkiycha so'z qo'llangan. Bu ko'rsatkich Hofiz Xorazmiyning zullisonayn shoir ekanini dalillaydi. Chunki boshqa til leksemalarining mazmun-mohiyatini chuqur anglab, kerakli o'rinda qo'llay olish yuksak mahorat mevasidir.

O'rtandi oh o'tina jon yordin **yiroq**,

Olamda tushmasun kishi dildordin **yiroq**.

Jahonda barchadin dildor **yaxshi**,

Tuman ag'yordin bir yor **yaxshi**. (952-g'azal, II Devon)

Sari ko'yi o'shaning bog'i jinondin **yaxshi**,

Eshigi tuproqi ham chu har kondin **yaxshi**. (953-g'azal, II Devon)

Fe'l, olmosh, ot, sifat so'z turkumlari kabi **ravish** ham radif sifatida devonda o'z o'rniga ega. Shularga e'tibor qaratamiz.

Hanuz, har dam – forscha.

Hanuz (434-435-g'azallar), **yonina** (7-g'azal), **bu kecha** (25-26-g'azallar), har dam (642-g'azal).

I va II devonga kiritilgan umumiy g'azallarning 6 tasi (1,3 %)da ravish so'z turkumi radif bo'lib kelgan. Ulardan 3 tasida (0,55%) umumturkiy so'zlar radif sifatida qo'llangan.

Sarvi ozodim qachon gasht etsa gulshan **yonina**,

Shohbozi kuds kelgay ul nishiman **yonina**.

Ul mohro'y sarvqad kelsa xiromon **bu kecha**,

⁸ O'zbek tilining izohli lug'ati. O'ME. 4-tom. 357-b.

Husnu jamolindin bo‘lur majlis guliston **bu kecha**. (25-g‘azal)

Oldi niqob yuzidin ul yor **bu kecha**,

Bo‘ldi kushoda yuz gulu gulzor **bu kecha**.

Modallik ma‘nolariga ega bo‘lgan so‘zlarning mazmunidan unumli foydalangan shoir ushbu so‘zlarni radif sifatida qo‘llagan.

Darig‘ – forscha so‘z hisoblanib, afsuslanish ma‘nosini ifodalaydi. Modallik ma‘nosiga ega bo‘lgan boshqa so‘zlar umumturkiy so‘zlardir.

Xabar yo‘q (523-, 524-, 525-, 526-, 527-, 528-, 529-g‘azallar), **yo‘qdur** (252-, 178-, 179-g‘azallar), **yo‘qturur** (251-g‘azal), darig‘ (507-g‘azal), **kerakdur** (180-, 152-, 154-g‘azallar). Bunday so‘zlar 15 ta g‘azal radifi bo‘lib kelgan bo‘lib, bu barcha g‘azalning 2,7% ini tashkil etadi.

Ishqi bila jon berdimu jonong‘a **xabar yo‘q**,

Zor o‘ldi gadosi, taqi sultong‘a **xabar yo‘q**. (523-g‘azal)

Jononasizin oshiqi dilxastag‘a jon **yo‘q**,

Chun ko‘rinur onsiz ko‘zuma jumla jahon **yo‘q**. (524-g‘azal)

Yuzi yanglig‘ chaman ichra guli zeboe **yo‘q**,

Ham qaro ko‘zlaritak nargisi ra‘noe **yo‘q**. (525-g‘azal)

Jafo-vu javr qilur yor-u bir vafosi **yo‘q**,

Shifoyi jondur-u man xastag‘a davosi **yo‘q**. (526-g‘azal)

Yore erur o‘shulkim anga hech yor **yo‘q**,

Gulzori husni ichra taqi zarra xor **yo‘q**. (527-g‘azal)

Ko‘rarman jon ko‘zi birla aningtak ko‘rklu jonon **yo‘q**,

Manim jonimg‘a javr etkuchi andog‘ hech sulton **yo‘q**. (528-g‘azal)

Qaddu yuzung tarovati sarvu sumanda **yo‘q**,
Gavhar tishing latofati durri Adanda **yo‘q**. (529-g‘azal)

Ey pari, husn ichra santak hech inson **yo‘q turur**,
Zarralarga son boru ushshoqinga son **yo‘q turur**. (251-g‘azal)

Bu majlis arosinda manga yor **karakdur**,
Ul g‘amzasi fitna, ko‘zi ayyor **karakdur**. (180-g‘azal)

Yordamchi so‘zlar ham radif sifatida g‘azallar ohangdorligi va ta‘sirchanligini boyitgan. Ularning barchasi umumturkiy so‘zlardir.

Aro (23-24-g‘azallar), **ila** (3-4-g‘azallar), **bila** (14-,15-, 16-g‘azallar), **birla** (35-, 36-, 37-g‘azallar), **esa**, **ichra** (28-29-g‘azallar) **ichinda** (54-g‘azal) kabi yordamchi so‘zlar ham radif sifatida o‘z o‘rniga ega (13 ta g‘azal, 2,4% ini tashkil etadi).

Ul ko‘ngdumni aldag‘an ko‘z ko‘ra mehru kin aro,
O‘tg‘a yoqar har nafas jonni shaku yaqin aro.

Saching mushki Xitodur Chin **ichinda**,
Xato qaydadur ushbu chin **ichinda**.

Bo‘lmasa vasl bandaga ul yuzi moh **ila**,
Mah xirmanini ko‘k uza yoqg‘ayman oh **ila**.

Zulfini ko‘rub chu bo‘ldum muhtalo savdo **bila**,
Sudu sarmoya borur, oh, emdi bu savdo **bila**.

Olamni tutdi andoq dilbar jamoli **birla**
Kim, har ko‘ngul murodin berur kamoli **birla**.

Visolining havasi tushdi ersa jon **ichra**,

Firoqi yoqdi mani dam-badam jahon **ichra**.

Radif sifatida qo'llangan umumturkiy so'zlar ko'rsatkichini quyidagi jadvalda ko'rsatamiz.

So'z turkumi	Nechta g'azal tarkibida kelgan?	Muraddif g'azallarning necha foizini tashkil qiladi? (muraddif g'azallarning umumiy soni 536 ta = 100%)	Radiflarning nechtasi umumturkiy so'z?	Umumturkiycha so'zlar muraddif g'azallarning necha foizini tashkil qiladi?
Fe'l	63 ta	11,7%	60 ta	11,1%
Olmosh	20 ta	3,7%	20 ta	3,7%
Ot	51 ta	9,5%	12 ta	2,2%
Sifat	10 ta	1,8%	3 ta	0,5%
Ravish	6 ta	1,1 %	3 ta	0,5%
Modal so'z	15 ta	2,7%	14 ta	2,6%
Yordamchi so'zlar	13 ta	2,4%	13 ta	2,4 %
Ja'mi:			125 ta	23%

Demak, ikki devonga kiritilgan g'azallarning 536 tasi muraddif g'azal. Ularning 125 tasida umumturkiy so'z radif sifatida qo'llangan bo'lib, radifli g'azallarning 23,5% ini tashkil etadi.

II.2. Arabcha so'zlar

Hech qanday til o'zga tillardan so'z o'zlashtirmay yashay olmaydi. Har bir til lug'at boyligida o'zlashma so'zlar talaygina. Xususan, o'zbek tili ham bundan mustasno emas. Turli ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqalar natijasida tilda yangi-yangi o'zlashma so'zlar paydo bo'ladi. Arablar bosqini, keyinchalik bu tilning davlat tiliga aylantirilishi, shu tilda asarlar yaratilishi arabcha leksemalarning tilimizda o'rnashib qolishiga zamin yaratdi. Necha asrlar o'tsa ham ularni unutib yuborish mumkin emas. Chunki bunday so'zlar xalq ongiga muhrlanib, ildiz otib

ulgurgan.

Hofiz Xorazmiy ijodida arabcha soʻzlarning qoʻllanishi ham fikrimizning yorqin dalilidir. Yuqoridagi qismlarda biz umumturkiy soʻzlar tahliliga toʻxtalgan edik. Oldimizga qoʻyilgan endigi vazifa arabcha soʻzlarning radif sifatidagi oʻrni va ahamiyatini oʻrganishdir.

Feʼl soʻz turkumi turkiy qatlamga oid soʻzlar jamlanmasidir. Ammo devonda qoʻshma soʻz shaklida turkiy + arabiy, yoki arabiy soʻzlarning oʻzi ham radif sifatida qoʻllangan.

Feʼllardan quyidagi soʻzlarni keltiramiz:

Boʻldim oqibat, qabul qilmas, nazar qilur, qilgʻil talab soʻzlari radif sifatida qoʻllangan. Ular qoʻshma soʻz boʻlib quyidagi shaklga ega.

Boʻldim oqibat (95, I) – turkiycha+arabcha;

Ul parivash zulfidin devona **boʻldum oqibat,**

Koʻrgil emdi xalq aro afsona **boʻldum oqibat.**

Qabul qilmas (577, II) – arabcha + turkiycha;

Jonni ravon qilurman jonon qabul **qilmas,**

Nag bandasi nisorin sulton qabul qilmas.

Nazar qilur (247, I) – arabcha+turkiycha;

Ul holdaki jonima jonon **nazar qilur,**

Goʻyiyo faqiri xastagʻa sulton **nazar qilur.**

Qilgʻil talab (79, I) - turkiycha + arabcha;

Tolibi jonman tesang yorni **qilgʻil talab,**

Yoʻq boʻlubon bir yoʻli borni **qilgʻil talab.**

Feʼl soʻz turkumida faqat shu holatni kuzatish mumkin. Olmoshlarda oʻzlashma soʻzlar kuzatilmaydi. Shuning uchun radif sifatida qoʻllangan arabcha ot soʻz turkumiga toʻxtalamiz.

Ishq – (a. – sevgi, muhabbat; oshiqlik) 1. boshqa jinsdagi shaxsga intilish hissezgisi. Majnunning layliga ishq⁹. Koʻrib oʻtganimizdek ”ishq” soʻzi arab tilidan oʻzlashgan soʻz.

⁹ Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 2-tom. 261-bet.

Xoliy ermas bir zamon boshdin bore savdoyi **ishq**,

Oqibat qilg'usidur boshg'a balo g'avg'oyi **ishq**.

Safar - arabcha – sayohat, sayr; biror joyga boorish; marta, gal (OTIL. 3-tom, 460-bet).

Chun ayladim g'ami ishq ila ixtiyori **safar**,

Bo'lasidur manga hijronda dard yori **safar**.

(Uchun) Farz – arabcha – farmoyish, amr, ko'rsatma(O'TIL. 4-tom, 328 bet).

Jon o'ynamoq erur manga dildor **uchun farz**,

Chun oshiqqa jon chakmak erur yor **uchun farz**.

Xat – arabcha – chiziq; yo'l; chegara chizig'i; saf, qator; noma, maktub, yozuv, dastxat. Yozuv yozilgan yoki chizilgan yoki o'yib tushirilgan belgilar; matn (O'TIL. 4-tom 388).

To chakdi gul sahifasi uzra g'ubor **xat**,

Anbarni o'tg'a soldi o'shul mushkbor **xat**.

She'r – arabcha – nazm, poeziya. Ma'lum vazn va qofiyali kichik badiiy asar (O'TIL. 4-tom, 565).

Eykim, bo'yungg'a rost kelibdur shiori **she'r**

Sandin ziyoda bo'ldi base kuru bori **she'r**.

Hojat - arabcha – ehtiyoj, talab, zarurat; istak-xohish; zarur, kerakli buyum. Keraklik, zarurlik, zaruriyat (O'TIL. 5-tom, 543).

Yuzini ko'rarda gulu gulzor **ne hojat**,

Gul bo'lsa nazarda xas ila xor **ne hojat**.

Shikoyat – arabcha – arz qilish, norozilik; ayblash. Nolish so'zi, hasrat (O'TIL. 4-tom, 569).

Qila bilman bu jonondin **shikoyat**,

Yarashmas tanga chun jondin **shikoyat**.

Ehtiyoj – arabcha – muhtojlik; zaruriyat, talab, hojat (O'TIL. 5-tom, 69-bet).

Jonu ko'ngulda bor bu jonong'a **ehhtiyoj**,

Andog'ki bor o'lu kishida jong'a **ehhtiyoj**.

Ot so'z turkumi doirasida shu kabi arab tilidan o'zlashgan so'zlarni ikkala

devonda ham radif sifatida qo'llanganini ko'rishimiz mumkin. Bunday so'zlar 18 ta (3,3%) g'azalning radifi bo'lib kelgan.

Sifat so'z turkumiga arab tilidan o'zlashgan latif va forig' so'zlari ham radif sifatida o'z o'rniga ega.

Latif – arabcha – iltifotli, xushmuomala; yumshoq, muloyim. Go'zal, chiroyli, nozik (O'TIL. 2-tom, 488-bet).

Yor labidur manga jondin **latif**,

So'zlari ham ob-i ravondin **latif**.

Forig' - arabcha – holi, bo'sh; egallanmagan, befoyda (O'TIL. 4-tom, 357-bet).

Jon chekarimdin erur bir yo'li jonon **forig'**,

Ne ajab, bo'lsa gadosindnn sulton **forig'**.

Ravish va yordamchi so'z turkumlariga o'zlashgan arabcha so'zlar shoir ijodida uchramaydi. Devonlarga kiritilgan g'azallarning radifida modallik ma'nosini ifodalovchi arab tilidan o'zlashgan so'zlar mavjud emas.

Demak, muraddif g'azallarning 20 tasida arabcha so'zlar radif sifatida qo'llangan. Bu butun muraddif g'azallarning 3,7% ini tashkil etadi. Shoir ijodida oz bo'lsa ham o'zlashma so'zlarning mavjudligi hamda ulardan o'rinli foydalana olinganligi Hofiz Xorazmiyning tom ma'nodagi badiiy tafakkuri va salohiyati yuksak ijodkor ekanidan dalolat beradi.

II.3. Forscha so'zlar

O'zbek tiliga leksema o'zlashtirishning manbalari turli davrlarda turlicha bo'lgan. O'zbek tiliga leksema o'zlashtirishdagi qadimgi manbalar deb fors va arab tillari ko'rsatiladi¹⁰. Fors, arab tillaridan leksema o'zlashtirish tarixan ko'p bo'lgan, hozir esa siyraklashganini hisobga olsak, Hofiz Xorazmiy devonining 20 g'azali (3,7%) da arabcha so'zlar, 30 ta (5,5%) g'azali tarkibida forscha so'zlar radif bo'lib kelganining guvohi bo'lamiz. Ular quyidagilar:

¹⁰ Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Universitet, 2006, 106-bet.

Ravon bordi (839-g'azal, II Devon) – forsha+ turkiycha ;

Qayu yong'aki gasht aylay o'shul sarvi **ravon bordi**,

O'shani izda-yu tandin chiqib, jonu **ravon bordi**.

Judo tushdi (-ti) (53, I; 858, II) – forsha+ turkiycha;

Nazardin ko'z ko'ra bir yo'li ul jonon **judo tushdi**,

Kim andog' xastavu majruh tandin jon **judo tushdi**.

Jon olur (373, I) – forsha+turkiycha;

Igda tutib ko'z ko'ra ul ol yangoqi **jon olur**,

Chun qo'lumg'a tushmayin olma saqoqi **jon olur**.

Ot so'z turkumiga o'zlashgan quyidagi forsha so'zlar g'azallarning radifi sifatida qo'llangan: yor, paydo, gado, dard, yod, navo, do'st, orzu.

Yor – forsha do'st, dilga yaqin kishi; hamdam, muhib (O'TIL. 2-tom, 43-bet).

Rahm etib qilsa nazar ayyor **yor**,

Bo'lg'ay erdi oshiqing'a yor **yor**.

Do'st – forsha – shafqatli o'rtoq, yor, oshno (O'TIL. 1-tom, 678-bet).

Ko'ngil murodi bukim bo'lsa pokboz, **ey do'st**,

Vafo yo'linda taqi qilsa bir niyoz, **ey do'st**.

Orzu – forsha – xohish, intilish, istak. Ezgu umid (O'TIL. 3-tom, 156-bet).

Shakkarin la'li labin doim qilur jon **orzu**,

Ne tariqa to'tiy qilsa shakkariston **orzu**.

Ot so'z turkumiga oid fors tilidan o'zlashgan so'zlar 21 ta (3,9%)g'azalning radifi bo'lib kelgan.

Oshkor, xush, judo so'zlari ham radif sifatida o'z o'rniga ega. 5 ta g'azalning radifi sifatida qo'llangan ushbu so'zlar fors tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan sifatlar hisoblanadi. Shu bilan birga hanuz, har dam ravishlari, darig' modal so'zlarining nozik ma'nolaridan foydalanib, Hofiz Xorazmiy o'z g'azallariga radif qilib tanlagan.

Umr kechdiyu manga bo'lmas o'shul yor **hanuz**.

Javr etar yori vafodor dildor **hanuz**.

Boradur eshigina aning ravonim **har dam**,
Ko'k uza ham chiqadur ohu fig'onim **har dam**.

Ko'rguzur bo'lsa yuzin ko'zumga jonon **oshkor**,
Ko'runur ul oyinada suvrati jon **oshkor**.

Oshiqi bechorasig'a yor xushdur, yor **xush**,
Jumla mavjudotdin olamda ul dildor **xush**.

Yor bo'lmadi manga bir nafas ul yor, **darig'**,
Yod ham qilmadi bu xastani dildor, **darig'**.

Shoir ijodida forsiy so'zlarning o'zni va ahamiyatiga to'xtalar ekanmiz, Xorazmiyni zullisonayn ijodkor ekaniga yana bir bor ishonchimiz komil bo'ladi. Har bir baytda takrorlanayotgan radifning turli xil ma'nolarini ochib berish, undan tashqari o'zlashma so'zlarning tub mazmun-mohiyatiga yetib borish yuksak badiiy mahorat va ilmiy salohiyatni talab qiladi.

O'zlashgan leksemalar hozirgi adabiy o'zbek tili lug'atida salmoqli o'rin tutadi. Til taraqqiyoti o'zlashgan qatlamning leksemalari hisobiga boyib borishini ko'rsatmoqda. Arab va fors tilida yaratilgan asarlar bu borada eng muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

II. 4. Arxaik va shevaga xos so'zlar

Eskilik bo'yog'i bor til birligi *arxaizm* deyiladi (yunoncha *arshaios* – "qadimgi")¹¹.

Arxaizm yunoncha – qadimgi, ko'hna so'zidan olingan bo'lib, eskirib, iste'moldan chiqib qolgan so'z yoki iborani anglatadi. Arxaizmlar quyidagi turlarga ajratiladi: leksik arxaizmlar (arkon, mirzo), fonetik arxaizmlar (ersa, birlan, emdi), morfologik arxaizmlar (bilur, turur, bo'lgay, burung'i).

¹¹ Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Universitet – 2006, 95-bet.

Biz ushbu ishimizda Hofiz Xorazmiy ijodida radiflarning leksik tahlili masalasini yoritishga harakat qilmoqdamiz. Yuqoridagi qismlarda radif sifatida qo'llangan umumturkiy, arabcha va forscha so'zlarning izohi va miqdoriy ko'rsatkichlari haqida ma'lumot berib o'tdik. G'azallarni tahlil qilish davomida radif sifatida qo'llangan so'zlar tarkibida arxaik va shevaga xos so'zlar ham mavjudligi e'tiborimizni tortdi. Shuning uchun ushbu masalaga to'xtalib o'tamiz. Radif sifatida qo'llangan so'zlar tarkibida arxaik leksemalar uchramaydi, lekin hozirgi o'zbek adabiy tili grammatikasida keltirilgan ayrim grammatik shakllarning eskirgan variantlarini (shoir yashagan davr tilida shu shakllar qo'llangan, hozirgi kunda ular eskirgan shakllardir) uchratishimiz mumkin.

Emas to'liqsiz fe'lining eskirgan shakli "dagul" so'zining turli shakllari (dagulmu, dagulmudur) radif sifatida qo'llangan.

Ishqing olida ulki jigarxun **dagul**,

Layliyi vaqt eruru Majnun **dagul**.

Ul oy yuzi qiblayi maqsud **dagulmu**?

Ishqinda ziyon bo'lsa, manga sud **dagulmu**?

La'ling sharobi shahd ila shakar **dagulmudur**,

Og'zing naboti qandi mukarrar **dagulmudur**?

Birinchi baytda inkor ma'nosini ifodalab kelgan bo'lsa, keyingi baytlarda ritorik so'roq ma'nosini yuzaga keltirish uchun xizmat qilmoqda.

Arxaik leksemalar va qo'shimchalarning eskirgan shakllariga duch keldik: qilg'il (-gin), qilg'aman, ko'rgasan (-gay), qilisar, bo'lisar (-gan), qanda bo'lur (qayda, -ar), ermas, emdi, erdi (emas, endi, edi), tilaman, topman (tilmayman, topmayman), yonina (yoniga), bila, ichinda, aro, ila (bilan, ichida, ora) .

G'orate har go'shada, ey ko'zi jodu, qilmag'il,

Ushbu lutfung birla oshiq'larni badxo' **qilmag'il**.

Jon bo‘ynina chu zulfini zanjir qilg‘aman,
Devonaliqdin o‘zga ne tadbir **qilg‘aman**.

So‘z bila to‘tiyi og‘zinki shakarxo **qilisar**,
Sirri pinhon jahonni manga paydo qilisar.

Yuzini ochmasa lutf aylab ul zebo nigor **emdi**,
Qilur qon yosh ila oshiq ko‘zi yuzin nigor emdi.

Yuzini ko‘rgali man oftobni **tilaman**,
Xatini savgali ham mushki nobni tilaman.

Ey hayotim hosili ko‘nglum olg‘an **qandasan**,
Jon firoqing o‘tidin o‘rtandi, ey jonon, qandasan.

Saching mushki Xitodur chin **ichinda**,
Xato qaydadur ushbu chin ichinda.

Shevaga xos talaffuzning ayrim unsurlari radif sifatida qo‘llangan so‘zlarda ko‘zga tashlanadi. Chakar – chekar; ne tegayman – ne degayman; izdang, izda, izdagil, izdar – izlang, izla, izlagil, izlar; man, sansan – men, sensan; karakdur – kerakdir; qilayim, o‘lalim, tegayim – qilay, (b)o‘lay, tegay.

Xorni tokim o‘zinga guli xandon **chakdi**,
Bulbuli so‘xtadil oh ila afg‘on chakdi.

Jonsan temay ul sarvi ravong‘a ne **tegayman**,
Mundin o‘ngin ul ofati jong‘a ne tegayman.

Xirqani garav qilg‘ali mayxonani **izdang**,
Jam jomi bikin sog‘aru paymonani izdang.

O‘shul qad birla sarvinoz **sansan**,
Jahon saydung taqi shahboz sansan.

Bu majlis arosinda manga yor **karakdur**,
Ul g‘amzasi fitna, ko‘zi ayyor karakdur.

Doimo jon bila man tolibi jonon bo‘layim,
Ko‘rguzur bo‘lsa yuzin husnina hayron **bo‘layim**.

Tilshunoslikka oid ilmiy adabiyotlarda talaffuzda tovush tushish hodisalaridan biri prokopa haqida fikr yuritiladi. Prokopa – so‘z boshida ba‘zan unli yoki undosh tovush tushib qolishi: yiroq – iroq, yigna – igna, yig‘ach- ag‘ach, yirik – iri. Hofiz Xorazmiy ijodida yig‘lamoq fe‘lining ig‘lamoq shaklida qo‘llanganining guvohi bo‘lamiz.

Firoqing g‘ami ichra ko‘zum ravon **ig‘lar**,

Bu ko‘z yoshini ko‘rib tanda jon ravon **ig‘lar**.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilish mumkinki, shoir radif sifatida qo‘llagan so‘zlarning aksariyati umumturkiy so‘zlar. Lekin bu ijodkor faqat turkiy til leksemalarinigina yaxshi tushunadi degani emas. Chunki tahlillar shuni ko‘rsatadiki, devonlarda arabcha, forsha o‘zlashmalar, arxaik va shevaga xos so‘zlar ham mavjudki, devonga kiritilgan g‘azallarning ohangdorligi, badiiyliigi va ta‘sirchanligini yuqori darajalarga olib chiqishda bu leksemalarning o‘rni va ahamiyati beqiyos. Araxaizmlarning har bir turiga misollar ko‘rishimiz mumkin. Devonda fonetik, leksik, morfologik arxaizmlar o‘rin olgan. Shevaga xos so‘zlar ham zamon va makon koloritini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etgan, Xorazm shevasiga xos xususiyatlar aks etgan.

III BOB. HOFIZ XORAZMIY LIRIKASIDA QO`LLANGAN QOFIYA VA RADIFLARNING BADIY XUSUSIYATLARI

She'rdan ohangdoshlikni qofiyadosh so'zlar hosil qiladi. Qofiyalanuvchi so'zlar ham ohangdoshlikda, ham ma'no jihatdan teng bo'lmaydi. Ohangdoshlik jihatdan teng bo'lsa, ma'noda va, aksincha, ma'no jihatdan teng bo'lsa, ohangdoshlikda farq qiladi. Qofiya hosil qiluvchi so'zlarning ohangdoshligi o'zak bilan o'zak orasida, o'zak bilan qo'shimcha orasida va qo'shimcha bilan qo'shimcha o'rtasida vujudga keladi.

Ma'lumki, qofiya she'riy asarlarda ifodalanayotgan ijtimoiy-axloqiy g'oyalar, teran falsafiy mushohadalarni badiiy so'z vositasida jozibali va ta'sirchan aks ettirishning muhim vositalaridan biridir. Har qaysi misra, bayt, banddagi qofiyalarda, qofiyadosh so'zlarda shoirning g'oyaviy-badiiy niyati o'z tajassumini topadi. Ijodkor qofiya vositasida o'z o'quvchisi diqqatini she'rdagi eng muhim fikrlarga jalb qiladi. Qofiyadosh so'zlar asarda gavdalanayotgan lirik yoki epik timsollarning ma'naviy qiyofasini chizishga, ularning axloqiy tamoyillari: tafakkur olami, tuyg'ulari, orzu-armonlarini yorqin aks ettirishga xizmat qiladi.

Qofiya ko'pincha badiiy asarning asosiy tasvir vositasi bo'lib, she'rning badiiy jihatdan yuksak bo'lishiga hissa qo'shadi, misralarni xushohang, musiqiy qiladi, radifsiz she'rlarda ritmik qatorlar oxirini ko'rsatadi. Qofiya adabiy janrlar (g'azal, qasida, ruboiy, tuyuq, qit'a, murabba', musaddas...)ni vujudga keltirishda muhim rol o'ynaydi.

Qofiyaning yana bir vazifasi – she'r intonatsiyasini(ohangini) yuzaga keltirishga ko'maklashishdan iborat. She'rning poetik mazmuni, undagi so'zlar intonatsiyasi, ritmi, vazni va band tuzilishi bilan uzviy bog'liq holdagina qofiya o'z vazifasini o'tay oladi. Ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy "Layli va Majnun" dostonida:

Ham qofiyasi aning sifoti,

Ham barcha radifi oning oti,-

deb yozar ekan, bu bilan dostonadagi qofiya va radiflar badiiy g'oya bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi. Darhaqiqat, dostonidagi qofiya va radiflarni

bir joyga to'plab mag'zi chaqib ko'riladigan bo'lsa, shoirning fikrida jon borligi aniq seziladi. (Go'yo Qays va Layli fojiali sevgisi, ularning motamsaro ruhiy kechinmalari, dard-hasratlari, qonli ko'z yoshlari qofiya va radiflarga sochilganday tuyuladi.)

Qofiya – she'r yo'ldoshi. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy iborasicha, qofiya – she'r uyasi – baytning ustuni, qofiyasiz she'r bo'lmaydi. Biroq o'rta asrlarda adabiyotda juda kam miqdorda bo'lsa-da harora¹² she'r bo'lgan. Bunday qat'iy nazar, qofiya she'r tuzilishining zarur unsuri ekanligini esdan chiqarmaslik kerak. Qofiya ilmida aruz qofiyalarini “mumtoz qofiya” va barmoq qofiyalarini “turkiy qofiya” deb atash qabul qilingan¹³.

Turkiy xalqlar og'zaki ijodida qofiyaning oddiy so'z takroridan tortib mukammal mustaqil turlarigacha bo'lgan shakllari uchraydi. Umuman, o'zbek og'zaki va yozma adabiyotida qofiyaning vujudga kelishida saj muhim o'rin tutadi. Bunga turkiy xalqlarning ko'plab og'zaki ijod turlarida, o'rxun-enasoy yodnomalarida, XI asrda Mahmud Koshg'ariy tomonidan yaratilgan "Devon-u lug'otit turk" asarida uchrovchi she'riy parchalardagi qofiyalar misol bo'la oladi.

Qofiya – katta, murakkab ilm. Qofiya ilmini o'rganish, bizningcha, mumtoz qofiya unsurlarini o'zlashtirishdan boshlanishi kerak. Darhaqiqat, Shayx Ahmad ibn Xudoydod nazm ilmini o'rganishda qofiya saboqlarining ahamiyati haqida to'xtalib, shunday degan: “Bilgilkim, majmui ulamo va fuzalo mazhabinda ahli tab'g'a qofiya ilmin bilmak muhimdir. Zeroki tab'ning natijasi she'rdur. Va she'rning asli qofiya. Va qofiyasiz she'r mumkin ermas... Va zurafo baytini xayma(chodir)g'a nisbat qilibturlar va qofiyani stung'a. Ya'ni xayma stun birla barpoydir”¹⁴.

Qofiya va she'riy san'atlar haqida juda ko'p bahs va munozaralar bayon etilgan, o'nlab ilmiy asarlar yaratilgan. Mumtoz adabiyotimizda yuzdan ziyod ma'naviy, lafziy va mushtarak xarakterdagi badiiy san'atlar mavjud. Ular asosan she'riy asarlar tarkibida ko'proq qo'llaniladi.

¹² Izoh: harora – qofiyasiz she'r demak. (N. Rahmonov. O'zbek adabiyoti tarixi. – T., “Sano-standart”, 2017, 351-bet)

¹³ Boboyev. T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T., “O'zbekiston”, 2002, 268-bet

¹⁴ Boboyev. T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T., “O'zbekiston”, 2002, 269-bet

Qofiya turli xalqlarda turlicha mavqega ega. Masalan, fransuz, italyan, ingliz, yoki rus poeziyasini olaylik, ularda, albatta, qofiyali va qofiyasiz she'rlarni uchratamiz. Sharq xalqlari poeziyasiga kelsak, qofiyasiz she'rlar yozilmagan. Arablar yo'lidan borgan forslar va suriyaliklar ham she'rlari qofiyasiz bo'lmagan. Alilsher Navoiy "Muhokamat ul – lug'atayn" asarida lug'at boyligi jihatidan o'zbek tilining fors tilidan ustunligini ifodalab, lafzlari ko'pligi, iboralari katta imkoniyatlarga egaligini ko'rsatib, fors tilidagi she'r san'atlarining hammasi va badiiy ifodalarini qo'llashda o'zbek tilining (turkiy) hech bir kamchiligi yo'qligini yozib, o'zbek poeziyasida qofiya xususida bir qancha imkoniyatlar borligini ko'rsatib beradi.

Adabiyotshunoslikka oid asarlarda qadimdan arablar, forslar va o'zbeklar tomonidan ishlatib kelingan qofiya turlari 36 ta bo'lganligi, bundan 16 tasi ma'lum emasligi hamda qolgan 20 xil qofiyalarning namunalari o'zbek mumtoz poeziyasi namunalarida va o'zbek xalq og'zaki ijodida qo'llanib kelinganligi aytilgan.

Qofiya – arab-fors poetikasida qadimdan mustaqil soha bo'lgan va uning maxsus nazariyasi yaratilgan. Bu nazariya bir qancha ilmiy asarlarda, adabiyotlarda, xususan, Shams ad-din Muhammad ibn Qays Ar-Roziyning "Fors poeziyasining o'lchovlari lug'ati" va Abdurahmon Jomiyning "Qofiyalar risolasi" asarida, rus akademigi I.Yu. Krachkovskiyning arab poeziyasiga oid tadqiqotlarida, B. Siriusning "Tojik poeziyasida qofiya" nomli asarlarida bayon etilgan.

Biz tadqiqot ishimizning bu bobida Hofiz Xorazmiy she'riyatida qofiyaning tarkibiy qismlari va badiiy xususiyatlarni talqin qilishni maqsad qildik.

Hofiz Xorazmiy merosi, bizga qoldirgan asarlari u bilan bir davrda yashagan Atoyi, Sakkokiy, Gadoiy, Lutfiy va boshqa turkiy adabiyot vakillarining merosidan kam emas.

Hofiz Xorazmiy devonining asosiy qismini g'azallar tashkil etsa-da, qit'a, tarjiband, muxammas, mustazod, tarkibband, tuyuq, ruboiy, marsiya kabi janrlar ham o'rin olgan. Shoir she'riyati mavzu jihatdan ham rang-barangdir. U hayotiy va ilohiy ishqni, tasavvuf g'oyalarini, islom qarashlarini, inson muhabbati bilan

bog'liq turli kechinmalarni, so'fiylik mafkurasini, turli falsafiy qarashlarni, odob-axloq, ilm-ma'rifat va boshqa mavzularni asos qilib oladi.

Shoirlarning san'atkorligi haqida bahs yuritganda, ularning qofiya qo'llashdagi badiiy mahoratiga ham alohida e'tibor qaratiladi. Shu talablardan kelib chiqadigan bo'lsak, Hofiz Xorazmiyning badiiy mahorati qofiya qo'llashda ham ko'zga tashlanadi. U qofiyaning har xil turidan unumli foydalanib, she'rlarining o'qilishi ravon va o'ynoqi bo'lishiga erishgan. Bu o'rinda qofiyadosh so'zlarni tanlashga va joy-joyiga qo'yishga katta ahamiyat bergan.

Qofiyaning shoir ijodida tutgan o'rni va ahamiyatini to'laroq, mufassalroq anglab yetish uchun quyidagi qofiya ilmi asoslarini atroflicha bilish zarur:

- Qofiyaning tuzilishi
- Qofiyaning turlari
- She'riy janrlarning qofiya xususiyatlari
- Qofiya san'atlari
- Vazn va qofiya
- Radif va qofiya

Adabiyotshunoslikda professor Anvar Hojiahmedov qofiya haqida maxsus tadqiqotlar yaratib uning ilmiy nazariyasini asoslab bergan. Biz ana shu olimning "She'riy san'atlar va mumtoz qofiya" asari asosida Hofiz Xorazmiy ijodini tahlil qilishga harakat qildik. (Hofiz Xorazmiy I va II "Devon"ga kiritilgan g'azallarning umumiy soni 1052 tani tashkil qilib, 1-548 ta g'azal "Devon" I kitobi, 549-1052-g'azallar "Devon" II kitobida o'rin olgan)

Qofiyaning tuzilishi. Qofiya asosini **raviy** harfi tashkil qiladi. Raviy so'zi arabcha "rivo" so'zidan olingan bo'lib "yukni tuyaga bog'laydigan arg'amchi" ma'nosini bildiradi. Arg'amchi tuya ustiga ortirilgan yuklarni mahkam birlashtirib turganidek, raviy ham she'rning qofiyalanuvchi barcha mirsalarini biriktirib, o'zaro bog'lab turadi.

Raviy harfi qofiyalanuvchi so'zlar tarkibida aynan takrorlanib kelishi shart. Raviy tub so'zlarda o'zak oxirida, yasama so'zlarda esa negiz so'ngida keluvchi cho'ziq unli yoxud undosh harfidir. Hofiz Xorazmiyning

Yaratgan bori qilg'ali jahonni yo'qdin **paydo**,

Jamoli husnina barchani qildi oshiqu **shaydo**.

Jamoli oftobini jahong'a jilva qilg'ali,

Ko'rarsang bordur (ur) har zarraning joninda yuz **savdo**¹⁵

Misralaridagi qofiyadosh “**shaydo**”, “**paydo**”, “**savdo**” so'zlari oxiridagi cho'ziq “o” unlisi raviydir.

Cho'ziq unlilar hamisha so'z oxirida kelmay, qo'shimchalar oldida ham turishi mumkin. Masalan, shoirning

Kim noz aylasa mahi **nomehribonina**

Ne shakku shubha qilg'ay o'shul damda **jonina**.

Arbobi husnga kishikim bersa ko'nglini,

O'tni solur o'z ilgi bila **xonumonina** (“Devon” 1, 24)

misralari bilan boshlanadigan g'azalida “**nomehribonina**”, “**jonina**” va “**xonumonina**” so'zlaridagi o'zak tarkibidagi cho'ziq “o” unlisi raviydir.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, qofiyadosh so'zlardagi takrorlanuvchi undoshlar oxirida kelgan unlilar qisqa yoki cho'ziq bo'lishidan qat'i nazar raviy bo'la olmaydi. Bunday hollarda undan oldin turgan undosh raviy hisoblanadi:

Olamni tutdi andoq dilbar **jamoli** birla

Kim, har ko'ngul murodin berur **kamoli** birla.

Qildi savol o'shul jon holing netak kechar teb,

Hal qildi mushkilimni so'rub **savoli** birla. (“Devon” 1-kitob 36-bet)

deb boshlanuvchi g'azalida ham “**jamoli**”, “**kamoli**”, “**savoli**”, “**maqoli**”, “**oli**”, “**xayoli**”, va “**holi**”, “**xoli**” qofiyadosh so'zlar oxiridagi “i” unlisi emas, balki “l” undoshi raviy hisoblanadi.

Hofiz Xorazmiyning quyidagi:

Voy, o'shul misingakim, bir **g'amguzore** topmasa,

Ishqda jon o'ynasayu, **e'tibore** topmasa.

Kechsa koru bordin bir yo'liyu, o'z shohining

Eshiginda itlarincha kor-u **bore** topmasa, (“Devon” 1-kitob 43-bet)

¹⁵ Xorazmiy Hofiz. Devon, 1-kitob, Toshkent – 1981, 20-bet. (Bunday keyingi misollar ham shu nashrdan olindi va “Devon” – kitoblarining kitob raqami, sahifa raqami sahifasi ko'rsatiladi)

misralarida “**g’amguzore**”, “**e’tibore**”, “**bore**” qofiyadosh so’zlari ham qo’shimchadagi “e” unlisi emas, “r” undoshi raviy sanaladi.

She’riyatimizda aksariyat asarlarda undoshlar raviy bo’lib keladi va buni shoir ijodida ham uchratamiz:

Xona purnur bo‘lur ul **mohi tobon** kelsa,

Zinda bo‘lur tan bejong‘a, bale, **jon** kelsa.

Ayshxona bo‘lur erdi manga **bayt ul-ahzon**,

Xasta Ya‘qub so‘ra **Yusufi Kan‘on** kelsa (“Devon” 1, 43)

g‘azalida “**mohi tobon**”, “**jon**”, “**bayt ul-ahzon**” va “**Yusufi Kan‘on**” so’zlari oxiridagi “n” undoshi raviy bo’lib kelgan.

Shoirning:

Davri yuzungda saning mehru **qamardur** paydo,

Labi la‘lingda taqi shahdu **shakardur** paydo.

Rangi gulni yuzunga garchikim o‘xshaturlar,

Ol yuzungda vale rangi **digardur** paydo. (“Devon” 1, 5)

baytida esa “**qamardur**”, “**shakardur**” va “**digardur**” kabi qofiyadosh so’zlar oxiridagi “r” undoshi emas o‘zakdagi “r” undoshi raviy bo’lib kelgan.

Raviy tuzilishiga ko‘ra raviydan oldin va undan keyin turuvchi unli va undosh harflar ham turli nomlar bilan yuritiladi. Xususan, raviydan oldin keluvchi undoshlar *qayd*, *dahil*, cho‘ziq unlilar esa *ridf*, *ta‘sis* deb, qisqa unlilar (harakatlar) *hazv*, *tavjih* va *ishbo* deb yuritiladi. Raviydan keyin keluvchi undoshlar yoki, cho‘ziq, shuningdek, arab yozuvida harf tarzida yoziladigan qisqa unlilar *vasl*, *huruj*, *noyira*, qisqa (yozilmaydigan) unlilar (harakatlar) *major* va *nafoz* nomlari bilan bilan yuritiladi.¹⁶

Qofiya raviy bilan tugallansa, **muqayyad qofiya** deb, raviydan so‘ng davom etsa **mutlaq qofiya** deb ataladi.

Tuzilishiga ko‘ra qofiyalar to‘rt turga bo‘linadi. Bular **mujarrad**, **murdaf**, **muqayyad** va **muassas** qofiyalardir.

Mujarrad qofiya. O‘zbek she‘riyatida keng qo‘llangan qofiya turlaridan

¹⁶ Hojiahmedov A. She‘riy san‘atlar va mumtoz qofiya. – T ., “Sharq”, 1998, 117-bet

biri **mujarrad qofiya** hisoblanadi. Bu xil qofiyaning bir turi raviy cho'ziq unli dan iborat bo'lgan qofiya bo'lib, unda shu cho'ziq unli dan boshqa biron harf ishtirok etmaydi. Raviy o'rnida esa uch cho'ziq unli (o, o', u) dan istalgani kela oladi. Masalan, Hofiz Xorazmiy "Devon" idagi

To yuzung bo'ldi mohi **mehrafzo**,

Bo'ldi husnung bila ko'zum **biyno**.

Sun'i birla iloh ko'rguzadur,

Oy yuzung uzra turlu nuru **safo** ("Devon" 1, 55)

Baytda **mehrafzo-biyno-safo** qofiyalari mujarrad bo'lib, raviysi cho'ziq "o" unlisidir.

Mujarrad qofiyaning ikkinchi turi undosh bilan tugallanib, shu undosh raviy bo'lib hisoblanadi, undan oldin esa istalgan qisqa unli kelishi mumkin. Bu unli tavjih deb ataladi. Demak, mujarrad qofiyaning bu turi bir qisqa unli bilan bir undoshdan iboratdir.

Saching mushki Xitodur **Chin** ichinda,

Xato qaydadur ushbu **chin** ichinda.

O'shul kofir qaro g'ammoz ko'zung

Tuman ming fitna soldi **din** ichinda. ("Devon" 1, 55)

deb boshlanadigan Hofiz Xorazmiyning g'azalida "**Chin**", "**chin**", "**din**", "**kin**", "**qin**", "**ayn**", "**rangin**" va "**haqbin**" so'zlari qofiyadosh bo'lib, "n" undoshi raviy, undan oldingi "i" qisqa unlisi tavjih hisoblanadi.

Murdaf qofiya. Raviy harfidan oldin cho'ziq unli lardan biri kelgan qofiya murdaf (ridfli) qofiya deb nomlanadi. Cho'ziq unlining o'zi esa ridf deb ataladi.

She'riyatimizda raviydan oldin "o" cho'ziq unlisi kelgan murdaf qofiya juda ko'p qo'llangan.

Bo'lubtur banda birla **yor** o'zga,

Ne yondin bo'ldi ul **dildor** o'zga.

Qaroqchilikda ko'zi birla zulfi,

Erur tarroru ul **ayyor** o'zga. ("Devon" 1, 62)

Sanga kim tedi, ey jon, **noz** qilma,

Manga noz aylamakni **oz** qilma.

Nasibi dard-u g'amni baxsh etarda,

Manga san o'zgani **anboz** qilma. ("Devon" 1, 63)

Ko'rinib turibdiki, "o" unlisidan keying raviiy o'rnida istagan undosh kelishi mumkin. Lekin o'zbek she'riyida ko'pincha "n", "z", "r", kabi undoshlar raviiy sifatida keng qo'llangan¹⁷.

Muqayyad qofiya. Bu xil qofiyalarda qo'sh undosh qisqa unlidan so'ng keladi. Qisqa unli *hazv*, raviiydan oldingi undosh "*qayd*" deb ataladi. Masalan,

Ko'ngil qarobasi topdi ko'zindin asri **shikast**,

Qilur munung biki ishlar mudom **mardumi mast**.

Labi chu bodayi jon berdi jumla oshiqg'a,

O'shanda ayladi man tashnalabni **bodaparast** ("Devon" 1, 96)

Muassas qofiya. Cho'ziq "o" unlisi bilan raviiy o'rtasida bir undosh va undan keyin bir unli keladigan qofiya muassas qofiya deyiladi. Cho'ziq "o" unlisi *ta'sis* deb, undan keyingi undosh *daxil* deb, raviiy olidagi qisqa unli esa *ishbo* deb atalaladi:

Ko'z uchi birla boqib aylasang bu qulg'a **rioyat**,

Ushul rioyating o'lg'ay haqimg'a ayni **inoyat**.

Jafo-vu javr qilichin bu xasta xonima chakma,

Sitam raiyatina qilmadi chu shohi **viloyat** ("Devon" 1, 96)

misrasida **rioyat-inoyat-viloyat** qofiyalari muassas bo'lib, cho'ziq "o" unlisi – *ta'sis*, "y" undoshi – *daxil*, "a" qisqa unlisi *ishbo*, "t" undoshi esa raviiydir.

Mutlaq qofiya. Qofiyalar raviiy harfi bilan tugallanishi yoki undan keyin ham harflar kelishi mumkin. Raviiy bilan tugallangan qofiyalarni muqayyad deb, undan keyin harflar kelgan qofiyalarni esa mutlaq qofiya deb atash qabul qilingan.

Mutlaq qofiya tarkibidagi raviiydan keyin keluvchi harflar turlicha ataladi. Chunonchi, raviiydan keyin turuvchi undosh yoki cho'ziq unli **vasl** deb, ikkinchi, ya'ni vasldan keyin turuvchi undosh yoki cho'ziq unli **huruj** deb, uchinchi, ya'ni hurujdan keyingi undosh yoki cho'ziq unli **mazid** deb, to'rtinchi, ya'ni maziddan

¹⁷ Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – T ., "Sharq", 1998

keyingi undosh yoki cho'ziq unli **noyira** deb yuritiladi.

Sham'i yuzunga ko'rgali jonim manim **parvonadur**,

Zanjiri zulfungdin taqi oqil ko'ngul **devonadur**.

Mushkin qaro zulfung bila ko'zung xayoli tushkali,

Go'yo ko'ngul Chinu Xito mulkindagi **butxonadur** ("Devon" 1, 96)

misrasidagi "**parvonadur**" "**devonadur**" "**butxonadur**" qofiyalaridagi "a" unlisi – raviy, undan keyin kelayotgan "d" undoshi – vasl, vasldan keyingi turuvchi "u" cho'ziq unlisi – huruj, oxirgi "r" undoshi esa maziddir.

O'zbek mumtoz adabiyotining eng yuqori cho'qqisiga ko'tarilishi arafasida yashagan Hofiz Xorazmiyning adabiy merosi zamondoshlarining ijodiga nisbatan ancha salmoqlidir. Shoir hayoti va ijodi haqida ma'lumotlarni faqat uning qo'lyozma «Devon»ini tadqiq etish orqali aniqlashimiz mumkin. Hofiz Xorazmiy «Devon»dagi asarlarni o'qir ekanmiz, uning hayoti hamda ijodiga oid ko'plab ma'lumotlarga duch kelamiz¹⁸.

III.1. Tajnis san'ati

Hofiz Xorazmiy ijodini o'rganar ekanmiz, g'azallarning badiiy jihatidan yuksaklikka egaligi, tasviriylilikning go'zalligi, shoirning so'z qo'llash mahoratiga tahsinlar aytmoq joiz. Nega deganda so'zning eng nozik ma'nolarini ham ilg'ay olish va uni kerakli o'rinda qo'llash har qanday ijodkordan teran va tiniq fikr, ijodiy salohiyat talab etadi. Xorazmiyning devonlariga kiritilgan g'azallarning aksariyatida radif qo'llangan. Radifli g'azallar yaratish anchayin mushkul masala, bizningcha. Nega deganda, g'azalda ifodalanayotgan mazmun bitta fikr atrofida aylanadi. Bu esa qaytariq fikrlarni yuzaga keltirishi mumkin. Shoirning ijodkorligi shundaki, bir fikr doirasida hatto 7-9 baytli g'azallar yarata olgan. E'tiborli jihati, har bir bayt alohida mazmun kasb etishidir. Radif sifatida omonim, sinonim, antonim so'zlardan keng foydalanib, ga'zallarning ham shakliy, ham mazmuniy jihatdan betakrorligini oshirgan. Baytlarni tahlil qilish davomida turli so'z o'yinlari, shubhaga solishlar, tajnis va tazod san'atlariga duch keldik. Bu o'z

¹⁸ Sulaymonov M.. Hofiz Xorazmiy va o'zbek lirik she'riyatining rivoji nomli Dissertatsiya. Toshkent, 1996. 8-bet

navbatida |Hofiz Xorazmiy haqidagi fikrlarimizni yana bir bor dalillaydi.

Tajnis (yoki jinos) she'r baytida ma'no jihatdan har xil, ammo shakli bir xil yoki shaklan bir-biriga yaqin so'zni keltirib, ular vositasida muayyan bir fikr, lavha yoki timsolni ta'sirchan ifodalash san'atidir¹⁹. Demak, faqat omonim so'zlar emas, balki omonimlikni hosil qiluvchi birikmalar ham adabiyotshunoslikda tajnisni yuzaga keltiradi. Adabiyotshunos Anvar Hojiahmedovning fikricha, tajnisning quyidagi turlari adabiyotda keng qo'llaniladi: tajnisi tomm, tajnisi murakkab, tajnisi noqis, tajnisi zoyid, tajnisi muzori, tajnisi aks, tajnisi mukarrar, tajnisi xatti. Biz Hofiz Xorazmiy ijodida qofiya va radiflar orqali yuzaga chiqqan tajnis san'ati haqida fikr yuritmoqchimiz. Tahlillar natijasida ayon bo'ladiki, tajnisi aks san'atidan boshqa barchasi qofiya va radif sifatida qo'llangan so'zlarda ifoda etilgan.

Tajnisi tomm shakliy jihatdan bir biriga to'la mos tushgan ikki so'zning qo'llanishi bo'lib, Hofiz Xorazmiy ijodida tajnisning bu turi ancha keng qo'llangan.

Ey toshbag'ir kim, sani ko'nglim sinag'ondur, (sinagandir)

Tashlama jafo toshini, shisha sinag'ondur. (sinadigandir)

Ul sarvqadki lolamengiz yuzi oli bor, (qizili bor)

Oldi ko'ngulni ko'z ko'ra, bilman, ne oli bor. (oladigani bor)

Boshdin kecharimni bilib ul nozini boshlar, (nozini **boshlar**)

Nozing'a fido bo'lsun aning jon bila boshlar. (jon bila **boshlar** fido bo'lsin)

Nechakim ishqing o'ti bu xasta jonimni yoqar, (yoqmoq, yondirmoq)

Dam-badam ul yoqmaqi jonimg'a, ey jon, xush yoqar. (yoqmoq, ma'qul kelmoq)

Ko'rib o'tganimizdek, Hofiz Xorazmiy omonim so'zlarning shakl va mazmunidan unumli foydalanib, ular orqali g'azallarida nozik ma'nolar ifodalay

¹⁹ Hojiahmedov A. Badiiy san'atlar va mumtoz qofiya. – Toshkent.: "Sharq", 1998.

olgan. Yuqoridagi misollarda tajnisi tom radif doirasidagina kuzatildi. Qofiyada ham tajnisning shu turiga murojaat qilinganmi?

Husnung sharobi uchun ko‘zumni jom etibman,

Ul jomi may bila san shurbi **mudom** qilg‘il.

Santak jahonning ichra mohi **tamom** yo‘qdur,

Hofizg‘a ko‘rguzub yuz, so‘zin **tamom** qilg‘il.

G‘azalda **mudom** – **tamom** – **tamom** so‘zlari qofiya sifatida qo‘llangan. Shulardan so‘nggi ikki bayt tajnisli qofiya bo‘lib kelgan. Birinchi misrada also, umuman ma‘nosini ifodalagan bo‘lsa, ikkinchi misrada tamom qilmoq, tugatmoq ma‘nosida kelgan.

To ko‘ngulni gul yuzi **bog‘ ayladi**,

Jon qushing‘a zulfini **bog‘ ayladi**. Ushbu baytda “ayladi ” radif bo‘lib, “bog” so‘zi ikki ma‘noda qo‘llangan: birinchi misrada bog‘, gulzor qilmoq; ikkinchi misrada bog‘ich qilmoq ma‘nolari ifodalangan.

Qaror topmag‘a bo‘lmas o‘shul qaro ko‘zdin,

Yaqin bu so‘zni bilib ham yiroq **qaror** ko‘ngul.

Yuqoridagi keltirilgan baytda shakldosh so‘zlarning ikkovi ham qofiya sifatida qo‘llangan bo‘lsa, bu baytdagi qofiya shu baytning birinchi misrasidagi so‘z bilan omonimlik hosil qilmoqda. Birinchi misrada o‘rnashib olmoq ma‘nosi, ikkinchi misrada fe‘lning sifatdash shakli sifatida qaramoq ma‘nosini ifodalab kelgan. Qofiya sifatida qo‘llangan so‘zning baytdagi boshqa bir so‘z bilan to‘liq omonimlik – tajnisi tomm hosil qilish devonda juda ko‘plab uchraydi.

Nozuk o‘shul qil biki belin ko‘rub,

Tark qilur ahli vara’ qiylu **qol**,

Ol ko‘ngulni tesaman **ol** etar,

Dam-badam ul lola bikin yuzi **ol**.

Baytlarda “qol” va “ol” so‘zi qofiya bo‘lib kelmoqda. Ikkinchi baytdagi qofiya o‘z omonimlari bilan baytda go‘zal ma‘no ifodalash uchun xizmat qiladi: olmoq, qizil, olmoq.

Tajnisi murakkab tarkibli tajnis bo‘lib, bunda shakldoshlikni hosil qilayotgan

soʻzning bittasi bir soʻzdan, ikkinchisi esa ikki soʻzdan iborat boʻlishi mumkin.

Soʻzlagan aro boʻlsa labi laʼli **shakkarbor**,
Paydo boʻlur ogʻzindaki, bas qandu **shakkar bor**.

Ul sanamning yuzikim **gulzor** erur,
Yuzining gulzorina **gul zor** erur.

Yuzung xijolatidin andakim, gul ob boʻlur,
Xating nasimi tegar bexato gulob boʻlur.

Chunkim aylading jigar **biryon** muhabbat oʻtina,
Boshni bir yon solgʻilu joningni **bir yon** oʻynagʻil.

Tajnisning bu turi qofiya sifatida qoʻllangan. Chunki shakldosh soʻzlarning shakli bir xil boʻlsa-da, maʼnolari turlicha. Bu esa radif sifatida qoʻllashga biroz qiyinchilik va noaniqlikni yuzaga keltiradi. Baytlardagi ”shakkarbor” – ”shakkar bor” ; ”biryon” – ”bir yon” ; ”gulzor” – ”gul zor” soʻzlari murakkab tajnisi tomni hosil qilgan va qofiya boʻlib kelgan.

Murakkab tajnis tarkibidagi soʻzlardan biri bir soʻzning oxirgi qismi bilan boshqa soʻzdan tashkil topishi mumkin.

Rahm etib qilsa nazar **ayyor yor**,
Boʻlgʻay erdi oshiqingʻa **yor yor**.

Tajnis qoʻllangan baytdagi ikki soʻz hamisha shakl jihatdan bir biriga toʻla mos kelavermasligini koʻrib oʻtdik. Tajnisi noqis ham shularning biridir. Unga koʻra tajnisi hosil qiluvchi undoshlar bir biriga mos kelsa-da, unlilar bilan farqlanadi. Tajnisning bu turi soʻzning yozma shakli bilan bogʻliq. Hofiz Xorazmiy ijodida ham tajnisi noqis sanʼatining goʻzal naʼmunalariga duch kelamiz.

Necha qiygʻay javr birla jonimizgʻa yorimiz,
Yor boʻlmasmu hanuz ul dilbari ayyorimiz.

Og‘zi-yu ko‘zn bo‘lg‘ali pista taqi bodom,

Ul donayi xoli ko‘runur zulf ila bo dom.

Baytda ”yorimiz” va ”ayyorimiz” so‘zlari qofiya sifatida qo‘llangan. Ular tajnisi noqis san‘atini yuzaga keltiradi. Chunki bu so‘zlar unlilar bilangina farqlanadi.

Oshiqi xasta ko‘nglini ko‘z uchidin qararsiz,

Xoki roh ila dam-badam qonini ham qorarsiz.

Baytda tajnisi noqisni yuzaga keltirayotgan “qararsiz” , “qorarsiz” so‘zlari birgina unli bilan farqlanadi. Birinchi misrada qaramoq, ikkinchi misrada qormoq ma’nolari ifodalangan.

Tutti yozi yuzini ohim o‘ti milo-mil,

Ko‘zlarim chashmasidin bo‘ldi toqi molo-mol.

Tajnis san‘atining yana bir turi tajnisi zoyid, ya’ni orttirilgan tajnisdir. Bunda shakily bir xillikni yuzaga keltirayotgan so‘zlar bir biridan bir-ikki harf bilangina farqlanadi. Misol uchun |Hofiz Xorazmiy ijodidan ushbu baytni ko‘rib o‘tsak:

Yana bir misol:

Quadrat qilamin chun oldi naqq**qosh**,

Yozdi qaro ko‘z uza qaro **qosh**.

Bosh o‘ynamoq karakdur ishqda **bosh**,

Bu yo‘lg‘a loyiq ermis har bir **avbosh**.

Baytlardagi “naqqosh” – “qosh” , “bosh” – “avbosh” so‘zlari tajnisi zoyidni yuzaga keltirgan. Tajnisi zoyidda shakldoshlikni hosil qilayotgan so‘zlar bir yoki ikki tovush bilan farqlanadi. Farqlanuvchi tovushlar so‘z boshida, o‘rtasida va oxirida kelishi mumkin. Yuqoridagi misolda ortiqcha harflar so‘z boshida kelgan.

Yana bir misol:

Chiqdi esa eshikdin o‘shul sarvi **gul’uzor**,

Bo‘ldi yuzinga oshiq oshufta lola **zor**.

Arab yozuvida unlilarning ifodalanmasligini hisobga olsak, bu so‘zlar ikki tovush bilan farqlanib, tajnisi zoyidni hosil qilgan.

Tajlisi muzori' san'atida shakldosh so'zlar so'z boshi, o'rtasi, oxiridagi bir tovush bilangina farqlanadi. Tajnisning bu turi qofiyadosh so'zlar asosida yuzaga keladi va bunda to'liq qofiya hosil bo'ladi. Xorazmiy ijodidan namunalar keltiramiz.

Ey shahzoda, lutf ila gah-gah qulungni **yod** qil,
G'am ilgidin ozod etib, xasta ko'ngulin **shod** qil.

Har lahza manim jonima, ey do'st, **jafo** qil,
Bu javr-u jafo qilmoq uza bore **vafo** qil.

Yuzi birla zulfini payvasta savdim mohu **sol**,
Ushbu holimg'a aliftak qadim erur holi **dol**.

Ul lolatak uzoringa quldur hamisha **gul**,
La'li labingga jonni berur jom ichinda **mul**.
Shakldosh so'zlarni farqlanuvchi tovush so'z o'rtasida ham bo'lishi mumkin.
Ey jon, bu dam ul sarvi ravonni **qara**, qani
Kim ko'z yo'lidin bordi yurakning **qora** qoni.

Ko'zum yuzungga qilmoqlik tilar bir dam tamash**oe**,
Bu so'zdin o'zga yo'q turur ko'nglumda tamann**oe**.
Ba'zan farqlovchi tovush so'z oxirida ham kuzatiladi:
Bo'lubturur ko'ngul Majnuni Layli,
Ki yuzidur sabohu zulfi layle.

Tajlisi mukarrar "takrorlanuvchi tajnis" ma'nosini ifodalaydi. Bu xil san'at bir xil shaklga ega bo'lgan, lekin turli ma'nolarni ifodalovchi ikki so'zning misra oxirida yonma-yon kelishini nazarda tutadi. Bunda ikki so'z to'la mos bo'lmay, bir yoki ikki harf bilan farqlanishi mumkin. Hofiz Xorazmiy ijodida butun g'azal shu shaklga asoslangan.

Bo'stoni jong'a soldi ul yuzi gulnor nor

Lola yanglig' ol yangoqing'a erur gulzor zor.

Nechakim tarrorliq birla ko'ngulni saqladim,
Oqibat ol birla aldab oldi ul ayyor yor.

Topg'ay erdim man hayoti jovidon jondin kechib,
Oshiq o'lturmak uchun tiksa o'shul dildor dor.

Davlati bedorning yuzini ko'rguzmak uchun,
Ey xayoli yor, doim san mani bedor dor.

Zulfi vayrona ko'ng'lumda imoratlar qilur,
Ey musulmonlar, bu kofir zulfidur me'mor mor.

Har bir misra oxirda takrorlanuvchi so'zlar o'ziga xos go'zallik kashf etgan. So'zning bir qismi bilan shakldosh bo'lgan boshqa bir so'zni toppish va uni to'g'ri qo'llay olish mahorati Hofiz Xorazmiy ijodining yuqori parvozlarga chiqq olganini ko'rsatib turibdi.

Tajnisi xatti yozuv bilan bog'liq bo'lgan san'atdir. Bunda so'zlarning arab yozuvidagi nuqtalar bilan bo'lgan o'zgachaliklarga asoslaniladi. Ya'ni ularni farqlovchi belgi bu nuqtalardir.

Zohid yuzungni ko'rsavu kechmasa xoldin,
Bo'lg'ay yaqin ko'ngulgakim, ul ahli hol emas.

Kamandi zulfi soldi jonima band,
Bor ersa aqlingiz bermang manga pand.

Baytdagi tajnisi yuzaga keltirgan "xol" va "hol", "band" va "pand" so'zlari arab yozuvida bir nuqtaning borligi yoki yo'qligi bilan farqlanadi. She'riyatda shunday so'zlardan foydalanish tajnisi xatti deyiladi.

Ko'rib o'tganlarimiz – tajnis va uning turlari Hofiz devonlarida anchagina. Bu shoirning badiiy tafakkuri va yuksak salohiyatini o'zida namoyon qiladi. Demak,

shoir faqat omonim so'zlar bilangina cheklanib qolmasdan, so'zning shakl va mazmuniy jihatlarini yaxshi anglab, nozik ma'nolar yasay olgan.

III.2. Sinonim va antonimlar

She'riyatda so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlaridan foydalanish turli badiiy san'atlarni yuzaga keltiradi. Yuqorida ko'rib o'tganimiz shakldosh so'zlar tajnis san'atini, sinonim so'zlar tanosub san'atini, antonim so'zlar tazod san'atini, ko'p ma'noli so'zlar iyhom san'atini hosil qiladi. Hofiz Xorazmiy devonlariga kiritilgan g'azallarini tahlil qilish davomida omonim, sinonim, antonimlardan unumli va o'rinli foydalanib, badiiylikda tengi yo'q san'at asarlarini yaratganligiga guvoh bo'ldik. Ushbu qismda sinonim va antonym so'zlarning badiiy san'atlarni hosil qilishdagi o'rnini va ahamiyati haqida to'xtalamiz.

She'riy asarlarda ma'noviy jihatdan bir biriga yaqin bo'lgan so'zlarni qo'llash orqali obrazli tasvirlar yaratish san'ati tanosub san'atidir. Masalan, Hofiz qalamiga mansub

Ne gabru, ne musulmonu, ne tarso, ne yahudiylar,

Ne mo'min, ne muvahhidkim, anga quldur bari haqqo.

baytidagi diniy e'tiqodga aloqador tushunchalarni ifodalovchi gabru (kofir), musulmon, tarso, yahudiy, mo'min, muvahhid so'zlarining bir o'rinda keltirilishi tanosub san'atini hosil qilgan.

Yana bir misol:

To'lun oy yuzi bila bo'lg'ay munavvar chehramiz,

Kecha gar tushsa yuzining aksi ravzan yonina.

Baytda keltirilgan oy, munavvar, kecha, yuz, chehra so'zlarining mutanosibliigi asosida yorning nurga to'la chehrasi tasvirlanmoqda.

Baytda ma'nodosh so'zlardan foydalanish tanosub san'atining go'zal namunalarini yarata olgan shoir ijodida sinonim so'zlarni qofiya sifatida qo'llanganiga ham guvoh bo'lamiz.

Qaro zulfi ne turli xush yaroshur ol **yangoqingg'a,**

Qilib jonlarni barhamkim keturur ko‘z **qaroqingg‘a**.

“Yanoq” va “qaroq” so‘zlari baytda yorning go‘zalligini tasvirlashda asosiy uzv bo‘lib xizmat qilmoqda, chunki qofiya tinglovchini o‘ziga jalb qiladigan badiiy qismdir.

Bo‘lubtur banda birla **yor** o‘zga,

Ne yondin bo‘ldi ul **dildor** o‘zga.

Lolau guldin aning ol yuzi **zebodur**.

Sarvdin qaddi base husnda ham **ra‘nodur**.

Dildor dardi xasta ko‘ngulga **davo** erur,

Jonimg‘a ranji marhamu ayni **shifo** erur.

Yoki:

Dardi dilimga izdadim hech **davo** topulmadi,

Ranj ziyoda bo‘ldiyu ganji **shifo** topulmadi.

Olamning ichra holima **mahram** ko‘runmadi,

Bir jon taqi bu xastag‘a **hamdam** ko‘runmadi.

Ko‘z orzu bila ko‘ra olmas **jamolini**,

Jonim nedin tilar bila bilman **visolini**.

Ohkim, bermadi dildor manim **dodimni**,

Eshitib har nafase oh ila **faryodimni**.

Ma'nosi bir biriga yaqin bo‘lgan so‘zlarni qofiya sifatida qo‘llash baytning bir umumiy mazmun ifodalashini ta‘minlaydi. Har bir so‘z zanjir kabi bog‘lanib, ular o‘rtasida izchillik kuzatiladi. O‘zaro mutanosib tushunchalar vositasida oshiq kechinmalarining ta‘sirchan ifodasi yaratiladi. Bu borada antonim so‘zlardan foydalanib tazod san‘atini yuzaga keltirish ham baytni go‘zal tasvirlar jamlanmasiga aylantiradi. Tazod so‘zi “zid qo‘yish”, “qarshilantirish” ma‘nolarini

ifodalaydi. Ma'no jihatdan o'zaro qarama qarshi bo'lgan so'zlarni qo'llash orqali ta'sirchan badiiy ifodalar yaratish tazod san'atidir.

Oshiqni man' qilma ishq yo'lidin ko'rubsan

Kim, **podshohi** vaqtdur **darvesh** holi birla.

Yana bir misol:

Gadoyi muflisekim bo'lsa oshiq,

Gado ko'rma anikim **podshodur**.

Agar bo'lmasa oshiq **shohi** olam,

Ani san shoh bilmakim, **gadodur**.

Baytda qo'llangan podsho va darvesh so'zlari bir biriga zid tushunchalar bo'lib, baytda oshiqning ishq yo'lidagi darveshona hayoti ham podsholardek kechishi tasvirlangan. Bunda qiyinchilik tushunchasining mavjudlik yoki mavjud emasligi nazarda tutilmoqda. Bir bayt tarkibida kelgan ikki antonim so'z tazod san'atini hosil qilishini ko'rib o'tdik. Qofiya sifatida qo'llangan so'zlarni ham zidlantirish orqali Hofiz Xorazmiy tazod qofiya yarata olgan.

San shoh bo'lg'ali qayu shahkim **gado** dagul,

Ma'noda ul gadoy erur **podsho** dagul.

Nechakim qilsa ul javru **jafoni**,

Anga ko'rguzgaman mehru **vafo** man.

Saning hajring elinda **mubtaloman**,

Topa olman bu dard uchun **davo** man.

Husnu jamolining chu ko'runmas **nihoyati**,

Amri muhol erurki bilinsa **bidoyati**.

Baytlarda tazod san'atini hosil qilgan "gado" va "podsho", "jafoni" va "vafo", "mubtalo" va "davo" so'zlari bir biriga qarama-qarshi qo'llanilib, badiiy tasviriylik yuzaga keltirilgan. Uchinchi baytda zidlik hosil qiluvchi birliklarga izoh bersak,

o'rinli bo'lar edi. O'zbek tilining izohli lug'atida "mubtalo" so'ziga "azob chekuvchi", "giriftor", "duchor bo'lgan" deya izoh beriladi. Demak, mubtalo va davo so'zlari mantiqan zid ma'noli so'zlardir. Hofiz Xorazmiy ijodida omonim, sinonim va antonim so'zlar qofiya sifatida qo'llanilib, g'azalda go'zal tasviriylikni yuzaga keltirgan. Devonda bunday misollarni ko'plab kuzatamiz.

III.3. Takrorlar

Takrorlar ma'noni kuchaytirish va emotsionallik uchun xizmat qiladi. Sh. Balli takrorning yuzaga kelishini emotsional impulslar bilan belgilaydi. "Qancha impuls bo'lsa, shuncha takror bo'ladi", – deb yozadi u²⁰. Takrorlarlar nasriy asarda ham, she'riy asarda ham ahamiyatli o'ringa ega. Takrorlanishning o'rniga ko'ra anfora, epifora (zamonaviy adabiyotshunoslikka ko'ra) kabi turlari mavjud. Mumtoz adabiyotda takrir va mukarrir san'atlari ham takrorlanish qolipiga asoslanadi. Hofiz Xorazmiy g'azallarining qofiya va radiflari mavzusi bo'yicha ish olib borayotgan ekanmiz, radif va qofiya sifatida qo'llangan so'zlar takrorlash san'atiga asoslanganmi, degan savolga javob berish o'rinli deb hisobladik. Yuqoridagi qismlarning birida tajnisi mukarrar haqida fikr yuritib, Hofiz ijodida bitta g'azal boshdan-oyoq tajnisi mukarrar san'atiga misol bo'lishini aytib o'tgan edik. Avval so'zning mazmuniy jihatiga e'tiborimizni qaratgan bo'lsak, endi shu so'z shakllarining takrorlanishi tashqi jihatdan ohangdorlik va musiqiylikni ta'minlash uchun qo'llangani va mukarrar san'atini hosil qilganini ko'rib o'tamiz. Mukarrar san'ati Hofiz Xorazmiy devonida ko'plab o'rinlarda qo'llangan.

Jonu ko'ngullara xudo qildi nazar **judo judo,**

To bo'la bilsa qatralar bahri vujudda oshno.

Oyo, nigori gulandom **qandasan, qanda,**

Kim izdayu yuragim g'arq bo'ldi ol qonda.

Oshiqi bechorasig'a **yor xushdur, yor xush,**

²⁰ Shomaksudov A., Rasulov I va boshq. O'zbek tili stilistikasi. Toshkent.: "O'qituvchi", - 1983.- 232-b.

Jumla mavjudotdin olamda ul dildor xush.

Ko'rguzub lutf, **joni jon bo'lg'il,**

Oshkorovu ham nihon bo'lg'il.

Yonar ishq o'tina har lahza, **ey jonim, manim jonim,**

Guvohi haq erur ushbu so'zumga chashmi giryonim.

Labi shirining erur joni jonim,

Suchi og'zing taqi sirri nihonim.

Badiiylik, obrazlilik va tasviriylikni yana-da jozibador qiluvchi poetik figuralar kuchaytiruvchi, susaytiruvchi, ohangdosh va shu kabi turlarga ega bo'lib, takrorlar kuchaytiruvchi figuralar qatoriga kiradi. So'zning takrorlanishi she'rning musiqiyliigi va ta'sirchanligini ta'minlaydi. Agar ular qofiya sifatida qo'llangan bo'lsa nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Yuqorida misol tariqasida keltirgan baytlarimiz leksik takrorlarning Xorazmiy ijodidagi namunalari bo'lib, devonda bundan tashqari fonetik takrorlar ham mavjud. Alliteratsiya, assonans kabi fonetik takrorlar baytda ifodalanayotgan mazmuning shakliy jihatini yana-da go'zalroq ifodalagan va badiiy ta'sirchanligini orttirgan. **Assonans** – badiiy nutqqa intonatsion butunlik, ohangdorlik va emotsional-ekspressivlik bag'ishlash maqsadida qo'llaniladigan fonetik usul. Aynan va yaqin unlilarning takrorlanib kelishidan assonans hosil bo'ladi.

Man **qul** niyozini **ko'rub ul** sarvnozim **noz** etar,

Turlu jafovu javr etib, mehru **vafoni oz** etar.

Baytda lablangan unlilarning uyg'unlashuvi assonansni yuzaga keltirib, baytning ohangdorlik jihatini boyitishga xizmat qilmoqda. Yana bir misol:

Qaro zulfi o'shul jononaningkim mori pechondur,

Ko'rarman ko'p kishilarni aning makrinda bejondur.

Bu baytda ham xuddi shu uyg'unlashuvga guvoh bo'lamiz. Singarmonizmli tillarda unlilar uyg'unlashuvi ko'p kuzatiladi. Ayrim shevalar, xususan, Xorazm shevasi shular jumlasidandir.

Alleteratsiya (lot. Al -ga, -da; littera - harf) – she’rda, jumladan, bandda va qisman nasriy asarlarda ham bir xil undosh tovushlarning takrorlanishi. Alliteratsiya fonetik-stilistik usul sifatida badiiy nutqning intonatsion ifodaviyligini va ohangdorligini kuchaytradi. Hofiz ijodidan alleteratsiya san’atiga misollar ko’rib o’tamiz:

Niyoz birla yuzungni **ko**‘rarga **kim** kelur ersa

Shahidi ishq qilib, ustina namoz qilursan.

Majlisdakim ko‘runday **sham**’u **sharobu shohid**,

Gar Jabrail bo‘lsa sig‘mag‘ay anda zohid.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, takrorlar Hofiz ijodida ahamiyatli o‘ringa ega. Lirik qahramonning ruhiy kechinmalarini ochib berish uchun xizmat qilayotgan poetik figuralar ham shakily jihatdan, ham mazmuniy jihatdan betakror tasvirlar yaratishga asos bo‘ladi. Hofiz Xorazmiy ijodini o‘rganar ekanmiz g‘azallarining har bir tovushi, so‘zi, misra-yu bayti badiiy san’atlar, poetik figuralarga boy. Xalqona shevada bayon qilinishi esa g‘azal shaydolari safini tobora oshirib boradi.

UMUMIY XULOSALAR

Hofiz Xorazmiy g'azallarida qo'llangan radif va qofiyaning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishimiz davomida shunga guvoh bo'ldikki, shoir birgina tilda emas, balki zullisonayn shoir sifatida ikki tilda ijod qilgan. Uning nozik ma'nolarni ifodalay oladigan so'zlardan unumli va o'rinli foydalana bilishi o'zbek tilining lug'at boyligi qatorida fors-tojik tilining ham ahamiyatli o'ringa egaligi, ikki tilning bir-biridan qolishmaydigan mavqeda ekani, go'zallik va betakrorlik kasb eta olishini g'azallari orqali ifodalay olgan. Hofiz Xorazmiy g'azallarida qofiya va radif sifatida qo'llagan so'zlarning aksariyati umumturkiy so'z bo'lsa-da, u arab va fors tillariga mansub bo'lgan leksik birliklarning shakliy va mazmuniy tomonlaridan o'rinli foydalanib go'zal badiiy tasvir vositalarini yarata olgan ijodkordir.

1. Adib lirikasida qofiya sifatida o'z va o'zlashma qatlamga oid so'zlardan unumli foydalanilgan. Bu so'zlar ijodkorning badiiy maqsadlarni ifoda qilish maqsadida asosiy leksik birlik bo'lib xizmat qiladi.

2. Hofiz Xorazmiy lirikasida qofiyaga olingan so'zlarning asosiy qismini (taxminan 50 %ini) fors-tojikcha so'zlar tashkil etadi. Bu Hofiz Xorazmiyning bilimdon zullisonayn shoir ekanligidan dalolat beradi.

3. Ijodkor devonlarida qofiya va radifning hamma turlaridan unumli foydalanilgan (adabiyotshunoslik nazariyasi asosida qofiya va radifning tarkibi va tuzilishi solishtirildi).

4. Hofiz Xorazmiy lirikasida qofiyaga olingan so'zlarni (aynan, umumturkiy va arabcha so'zlarni) muayyan leksik-semantik guruhlar asosida tasnifladik.

5. Ijodkor birgina so'zning bir necha xil morfologik shakllarini radif sifatida qo'llagan va bu g'azallarining betakrorligini oshirgan. Birgina "qilmoq" fe'lining 21 ta shakli (tuslangan) dan foydalanib 63 ta muraddaf g'azal yarata olgan.

6. Qofiya va radiflarning o'z yoki o'zlashgan qatlamga oid ekanini aniqlash davomida o'zlashma so'zlarning ayrimlarini o'zimiz uchun kashf qildik. "O'zbek tilining izohli lug'ati"dan foydalangan holda arab va fors yoki umumturkiy

so'zlarni bir biridan farqlash tamoyillarini yana-da mustahkamlab oldik.

7. G'azallarda shevaga xos talaffuz shakliga ega bo'lgan leksik birliklardan foydalanilgani ijodkor she'riyatining naqadar jonli tilda bitilganini yana bir karra isbotladi. "sevdim" so'zining "savdim" shaklida, "chekar" so'zining "chakar" tarzida qo'llanilishi xorazm shevasiga xos ayrim xususiyatlarni o'zida namoyon etadi.

8. Arxaik leksemalar shoir g'azallarida deyarli qo'llanmagan. Bunday so'zlar umumiy bayt doirasida kuzatilishi mumkin, lekin biz qofiya va radif borasida ish olib borganimiz sababli arxaik so'zlarga duch kelmadik. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, arxaik affikslar juda ko'plab uchraydi. Negaki "Devon" tuzilgan davr tili nuqtayi nazaridan bu tabiiy hol. Ammo hozirgi tilshunoslik yuzasidan yondashadigan bo'lsak, afikslarning arxaik shakllariga ko'plab namunalar topa olamiz.

9. Radif va qofiya sifatida qo'llangan so'zlarning shakliy va mazmuniy xususiyatlaridan kelib chiqib go'zal badiiy tasvirlar yarata olgan ijodkor tajnis, takrir, tazod, tanosub san'atlarining ajoyib namunalari bilan g'azallarni yuqori darajadagi badiiy san'at asariga aylantira olganiga guvoh bo'ldik. Devonda birgina tajnis san'atining o'nga yaqin turlari mavjudligi e'tiborimizni tortdi.

10. Tanosub va tazod san'atlarining o'ziga xos o'rni va ahamiyati haqida o'rgandik va Hofiz Xorazmiy devonlariga kiritilgan g'azallarni tahlil markaziga tortdik. Takrorlarning eng ko'p qo'llangan turlarini ko'rib o'tish bilan cheklandik. Chunki Hofiz Xorazmiy devonlarida biz bilgan va bilmagan badiiy go'zallik hali anchagina. "Devon" adabiyotshunoslik uchun yirik manba ekani ayonlashdi. Bizning izlanishlarimiz dengizdan bir tomchinigina yuzaga chiqarish bo'ldi, xolos.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Karimov.I. Adabiyotga e`tibor – ma`naviyatga, kelajakka e`tibor. – Toshkent.: “O`zbekiston”, 2009. – 4-bet.
2. Karimov. I. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent.: “O`zbekiston”, 2009. – 87-b.
3. “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ`ibot qilish bo`yicha komissiya tuzish to`g`risida”. O`zbekiston Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev farmoyishi. // “O`zbekiston adabiyoti va san`ati” gaz, 2018, 13-yan. 3-son, 1-bet.

II. Ilmiy adabiyotlar:

1. Hojiahmedov A. Badiiy san`atlar va mumtoz qofiya. – Toshkent.: “Sharq”, 1998.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent.: “O`zbekiston”, 2002.
3. Rahmonov N. O`zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent.: “Sano-standart”, 2007.
4. Sulaymonov M. Hofiz Xorazmiy va o`zbek lirikasining rivoji nomli Dissertatsiya. – Toshkent.: 1996.
5. O`zbek tilining izohli lug`ati. – Toshkent.: “O`ME”,1-,2-,3-,4-,5- tomlar.
6. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o`zbek adabiy tili. – Toshkent.: “Universitet”, 2016.
7. Shomaksudov A, Rasulov I va boshqalar. O`zbek tili stilistikasi. – Toshkent.: “O`qituvchi”, 1983.
8. Sodaliyeva S. Hofiz Xorazmiy g`azaliyotida qo`llangan arabcha so`zlar (maqola). O`zbek filologiyasida matnshunoslik va manbashunoslik muammolari. – Namangan.: 2018. 297-bet.

III. Badiiy adabiyotlar:

1. Xorazmiy Hofiz. Devon I, II. 1981.
2. Xorazmiy H. Hayot vasfi. O'zbek adabiyoti bo'stoni turkumi. 1988.

Internet manbalari:

www.ziyonet.uz

www.literature.uz

www.kitobxon.uz